

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI METODIKASI KAFEDRASI

5141600-“Boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish” yo‘nalishi

IV kurs talabasi

ERGASHEVA HIKOYAT BAHROMOVNAning

“HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA KOMPOZITSIYA USULI BILAN

YASALGAN SO‘ZLARNING SEMANTIK - GRAMMATIK

XUSUSIYATLARI” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

k.o‘q. Z.Murtozov

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Pedagogika-psixologiya fakulteti dekani

_____ dots. T. RASULOV

“ _____ ” 2012- yil

Qarshi – 2012 yil

M U N D A R I J A

Kirish.....

1 BOB. So‘z yasallshining tarkibiy qismlari va uning amaliy ahamiyati

1.1. So‘z yasallshi tarkibi va asoslari.....

1.2. Qo‘shma so‘zlarning tarixan kelib chiqishi

1.3. So‘z hosil qilish usullari va kompozitsiya usulining so‘z hosil qilishdagi o‘rni.....

2 BOB. So‘z turkumlarida kompozitsiya usuli bilan so‘z yasallshi

2.1. Hozirgi o‘zbek tilida kompozitsiya usuli bilan ot va sifatlarning yasallshi

2.2. Fe‘l va ravishlarning kompozitsiya usulida yasallshi.....

2.3. Qo‘shma va juft so‘zlarning o‘zbek tili imlo lug‘atida aks etishi.....

Ilova (O‘zbek tilining imlo lug‘atidagi qo‘shma va juft so‘zlar).....

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

KIRISH

Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tilining o'rnini juda muhimdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi so'zlarida ulkan ma'no bor: "Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz".¹

Mustaqillik davrida o'zbek tili beqiyos darajada rivojlandi. O'zbek adabiy tilining istiqloq yillaridagi taraqqiyoti jarayonida yuz bergan o'zgarishlar nuqtai nazaridan uning so'z yasashi sistemasiga nazar tashlar ekanmiz, bunday o'zgarishlarni so'z yasovchi vositalarning faollashuvi, vazifa doirasining kengayishida so'z yasovchi yangi birliklarning, so'z yasashi yangi tiplarining paydo bo'lishi va boshqalarda ko'rish mumkin.

Lingvistik adabiyotlarda, ona tilidan darslik va o'quv qo'llanmalarida asosiy so'z yasash usullari sifatida qayd etilayotgan usullar quyidagilar: 1) semantik usul, 2) fonetik usul, 3) affiksatsiya usuli, 4) kompozitsiya usuli, 5) abbrevatsiya usuli.

Bulardan faqat affiksatsiya va kompozitsiya usullari hozirgi so'z yasashi, qolganlari diaxron yasashga oid usullardir. Demak, affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan so'z yasashi masalasi o'ta muhimdir.

Bu o'rinda hozirgi o'zbek adabiy tili so'z yasashi sistemasida kompozitsiya usulining o'rnini masalasiga to'xtalib o'tish tilshunoslikning **dolzarb** masalalaridan biridir. O'zbek tilida so'z yasashi usullariga, shuningdek, qo'shma so'zlarga oid ishlarda kompozitsiya usuli bilan so'z yasash deganda umuman qo'shma so'zlar, qo'shma so'zlar deganda esa kompozitsiya usuli bilan yasalgan so'zlar nazarda tutiladi. Lekin keyingi tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lmoqdaki, qo'shma so'zlarning hammasi ham kompozitsiya usuli bilan hosil bo'lgan so'zlar emas. Demak, barcha qo'shma so'zlar kompozitsiya usuli bilan yasalgan so'zlar bilan birga, shu usulning mahsuli sifatida o'rganilishi to'g'ri bo'lmaydi. Shunday ekan, qo'shma so'zlarning qaysilari so'z yasashining qanday usulga mansubligini belgilab olish kerak bo'ladi.

Ko'pchilik tilshunoslarning e'tirofi etishicha, kompozitsiya usuli bilan qo'shma so'zlar hozirgi o'zbek tilida anchagina miqdorni tashkil etadi. Shu bilan birga, bu usulda yangi so'zlar yasashi hozir ham davom etyapti. Ana shu ikki faktor asosida, hozirgi o'zbek tilidagi so'z yasash usullari haqida gap borganida kompozitsiya usuli so'z yasashining mahsuldor, faol usuli sifatida ta'riflanadi. Lekin kompozitsiya usulining mahsuldorlik, faollik darajasini

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –Toshkent, "Ma'naviyat", 2008, 85-b.

belgilashda bu usul bilan hosil bo'lgan so'zlarning miqdori emas, balki kompozitsiya usulining hozirgi o'zbek adabiy tili so'z yasash sistemasida tutgan o'rni, hozirgi so'z yasashida ishtiroki, ish ko'rish darajasi asosga olinishi kerak.

Kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo'shma so'zlardan faqat so'z yasovchi asos va so'z yashovchi morfemaga ega bo'lmaganlari so'z yasashiga oid lingvistik tushunchalarga ega va shunday qo'shma so'zlarga hozirgi o'zbek adabiy tili so'z yasashi bahsining o'rganish obyekti bo'ladi. Bizning malakaviy bitiruv ishimizda qo'shma so'zlarning shunday xususiyatga ega bo'lganlari tahlil etildi.

Hozirgi o'zbek tilida mavjud so'z yasash usullari orasida kompozitsiya usulining o'rni, uning so'z yasash sistemasidagi ahamiyati lingvistik adabiyotlarda yetarlicha yoritib berilmagan. Bu usulning mahsuldorligini, faollik darajasini belgilashda turli-tuman, ba'zan hatto zid qarashlar ham mavjud, ya'ni bu usulni tan olmaslik holatlari ham uchray turadi. Bu faktorlar bizning malakaviy bitiruv ishimizning **dolzarbligini**, hal qilinishi lozim bo'lgan muammolardan ekanligini ko'rsatadi. Shu sababi biz o'z ishimizning mavzusini "Hozirgi o'zbek tilida kompozitsiya usuli bilan yasalgan so'zlarning semantik-grammatik xususiyatlari" deb nomladik.

Bitiruv malakaviy ishimiz maqsadi hozirgi o'zbek tili so'z yasashi sistemasida kompozitsiya usulining o'rni va ahamiyatini belgilab olish, uning leksik-grammatik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, o'z oldimizga quyidagi **vazifalarni** bajarishni ham maqsad qilib qo'ydik:

- 1) Hozirgi o'zbek tilida so'z yasashi tarkibi va asoslarini tahlil qilish;
- 2) So'z hosil qilish usullari orasida kompozitsiya usulining o'rnini ochib berish va ahamiyatini aniqlash;
- 3) O'zbek tilidagi qo'shma so'zlarning tarixan so'z birikmalaridan kelib chiqqanligini ko'rsatish;
- 4) ot, sifat, fe'l va ravish so'z turkumlarida kompozitsiya usuli bilan so'z yasashini tahlil qilish;
- 5) Qo'shma va juft so'zlarning o'zbek tili imlo qoidalarida aks etishini ko'rsatib berish.

Bitiruv malakaviy ishimiz nafaqat nazariy jihatdan, balki **amaliy** jihatdan ham katta ahamiyatga egadir. Chunki bizning ishimizda qo'shma va juft so'zlar hamda ularning imlo qoidalari asosida yozilish holatlari ham o'z aksini topgan. Ma'lumki, o'quvchilar va talabalar qo'shma so'zlarni to'g'ri yozishda ko'pgina imloviy xatolarga yo'l qo'yadilar. Qo'shma so'zlarning qanday hollarda ajratib yoki qo'shib yozilishi haqida yangi imlo qoidalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqdik. Bundan o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida

keng foydalanish mumkin va bu holat imloviy savodxonlikni oshirishga ma'lum darajada xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

Malakaviy bitiruv ishimiz kirish, 2 bo'lim, 6 bob, ilova, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berildi. 1-bo'limda so'z yasalishi o'zbek tilshunosliging alohida bir bo'limi ekanligi ta'kidlanib, so'z yasalishi tarkibi va asoslari bayon qilib berilgan bo'lsa, 2-bo'limda o'zbek tili so'z turkumlarida kompozitsiya usuli bilan so'z yasalishi aniq misollar asosida tahlil qilib berildi. Shu bilan bir qatorda o'zbek tili imlo lug'atida qo'shma va juft so'zlarning yozilishi haqida tushuncha berildi, lug'atdagi bunday so'zlardan ko'plari ilova tariqasida keltirildi.

I BOB. SO‘Z YASALISHINING TARKIBIY QISMLARI VA UNING AMALIY AHAMIYATI

I.1. SO‘Z YASALISHI TARKIBI VA ASOSLARI

O‘zbek tilida kompozitsiya usuli bilan so‘z yasashi sistemasining nazariy masalalarini tadqiq etishga o‘tishdan oldin, umuman so‘z yasashi tarixi, bu jarayonning o‘ziga xos belgilari bilan bir-biridan farqlanuvchi bosqichlarini ajratish, har bir bosqichda erishilgan yutuqlar, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar va ularning sabablarini aniqlash bilan mazkur masala bo‘yicha navbatdagi vazifalarni belgilash, kun tartibiga qo‘yish imkoni tug‘iladi. Shu bois o‘zbek tili so‘z yasashining o‘rganilish tarixiga qisqacha to‘xtab o‘tishni lozim topdik.

O‘zbek tili so‘z yasashining o‘rganilish tarixini kuzatishdan ma’lum bo‘lyaptiki, bu tarixni ikki asosiy bosqichga ajratish mumkin: 1) so‘z yasashini tilshunoslikning morfologiya bo‘limida o‘rganilishi bosqichi; 2) tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ajratilishi va o‘rganilishi bosqichi. Bu bosqichni o‘z navbatida, ikki bo‘limga ajratish mumkin: a) tilni sistema sifatida o‘rganishgacha bo‘lgan bosqich; b) so‘z yasashini sistema sifatida o‘rganishga o‘tish bosqichi-hozirgi bosqich.

So‘z yasashining morfologiya bo‘limida o‘rganilishi bosqichi. Buning asosiy sababi, bizningcha, yasama so‘z va so‘z shaklini affiks, qo‘shimcha bilan hosil qilinishidir. Bu esa so‘z yasashi va so‘z shaklinig qanday til birligi deb tushunilishi bilan bog‘liq, albatta. Bu bosqichda so‘z yasashi va so‘z bilan bog‘liq ko‘pgina tushunchalar haqida umuman yoki yetarli ma’lumot (tasavvur) bo‘lmagan. Masalan, yasama so‘zning tarkibi, so‘z yasash asosi, so‘z yasovchi tushunchalari shular jumlasidandir.

So‘z yasashining tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ajratilishi va o‘rganilishi bosqichi. Bu bosqich XX asrning ikkinchi yarimlaridan o‘zbek tilini sistema sifatida o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratilgungacha bo‘lgan divrni o‘z ichiga oladi. Bu bosqich yuqorida ko‘rilgan bosqichdan quyidagi asosiy xususiyatlari, ijobiy natijalari bilan farqlanadi: 1) so‘z yasashining o‘zbek tilshunosligining mustaqil bo‘limi sifatida ajratilishi, tan olinishi bilan; 2) so‘z yasashiga xos asosiy tushunchalarning, ulardan har birining mohiyati belgilanishi bilan. Masalan, yasama so‘zning tarkibi, so‘z yasash asosi va so‘z yasovchi, so‘z yasash ma’nosi, so‘z yasash imkoniyati kabi tushunchalar va har birining mohiyati haqidagi fikr-mulohazalar shular jumlasidandir; 3) so‘z yasashi bilan bog‘liq ko‘pgina hodisalarning mohiyati haqida yangicha qarashlar yuzaga kelishi bilan. Masalan, uzoq vaqtlardan beri so‘z yasashining bir necha usuli borligi tan olib kelingan bo‘lsa, aslida, uning birgina usuli – affiksatsiya usuli mavjudligi haqidagi qarashlar va boshqalar. So‘z yasashining tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ajratilishi, alohida bo‘lim sifatida

o'rganilishi bilan ana shunday yutuqlarga erishish imkoniyatlari yuzaga keldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek tilini sistema sifatida o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilishidan hozirgacha bo'lgan bosqich. XX asrning oxirlariga kelib o'zbek tilini sistema sifatida o'rganishga alohida e'tibor qaratilganligi va shunday o'rganishga jiddiy kirishilganligi, bu esa o'z ijobiy natijalarini berayotganligi ma'lum. Shuningdek, o'zbek tilini sistema sifatida o'rganish bilan erishilayotgan ijobiy natijalar boshqa muhim muammolarni ham belgilashga va hal etishga ijobiy ta'sirini ko'rsatayapti. Shu bois o'zbek tilshunosligi taraqqiyotining bu davrini alohida bosqich sifatida ajratish xato bo'lmas kerak, deb o'ylaymiz. Zero, til sistemadan iborat ekan, tilshunoslik fani til sistemalarini o'rganishi tabiiy –boshqacha bo'lishi mumkin emas. Masalan, leksikologiyada har bir so'z turkumiga mansub so'zlarning leksik-semantik guruhlari, morfologiyada so'z shakllarining kategoriyalari (morfologik kategoriyalar) o'rganilgan. Bular tilning shu sathlariga xos sistemalaridir.

Shu vaqtgacha til sathlarining shunday sistemalari o'rganib kelindi. Lekin bu bosqichlarda til sistemalarining mohiyati, bu til birliklari bilan sistemalarning shakllanishida yuz beradigan hodisalarning mohiyati kabi nazariy masalalarga deyarli e'tibor berilgani yo'q. Tilshunosligimizning hozirgi bosqichi, boshqa muammolar bilan bir qatorda, til sathlari, ularning sistemalanishi bilan bog'liq eng muhim nazariy masalalarni hal etish bilan jiddiy shug'ullanayotganligi, bu harakatlar o'z ijobiy natijalarini berayotganligi bilan xarakterlanadi.

O'zbek tili so'z yasashining o'rganilish tarixiga qisqacha to'xtalar ekanmiz, bir narsani alohida ta'kidlashni lozim topamiz. Umumtilshunoslikda tilni sistema sifatida o'rganish ancha ilgaridan boshlangan bo'lib, bu borada e'tiborga loyiq natijalarga erishilgan. Ana shunday ishlarning, erishilgan natijalarning ta'sirida o'zbek tilshunosligida ham o'zbek tilini sistema sifatida o'rganishga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi va bu masala yuzasidan muayyan ishlar ham yuzaga kela boshladi. Ma'lumki, tildagi tegishli usul va vositalar yordamida yangi so'zlar hosil qilish so'z yasashi deyiladi.

Tilshunoslikda «so'z yasashi» termini ikki ma'noda qo'llanadi: bir tomondan, tilda yangi so'z hosil qilish jarayonining so'zini bildiradi, ikkinchi tomondan esa tilshunoslikning so'z yasashi sistemasini o'rganuvchi bo'limini bildiradi. So'z yasashi tilda mavjud bo'lgan so'z yasashi tarkibini va so'z yasash usullarini o'rganadi. Bularni o'rganish hozirgi o'zbek adabiy tilidagi so'z yasashi meyorini belgilash, uning qonuniyatlarini to'g'ri tushunish imkoniyatini beradi. So'z yasashi sistemasi morfemika bilan uzviy borlangan. Chunki so'zning ma'noli qismlari — morfemalar (o'zak morfema va affiksalar morfema) tilda yangi so'z hosil qilishning eng muhim elementlari xisoblanadi.

Til lugʻat tarkibining yangi yasalgan soʻzlar hisobiga boyib borishi, soʻz maʼnosining oʻzgarishi, uni boiqa maʼnoda ishlatish yoʻli bilan yangi soʻz hosil qilish — bular soʻz yasallishining leksikologiya bilan aloqadorligini koʻrsatadi. Grammatika esa soʻz yasash jarayonini boshqaradi, yangi yasalgan soʻzlarning qaysi soʻz turkumiga tegishli ekanligini belgilaydi. Har bir turkum doirasida soʻz yasashning shakl yasash bilan aloqada ekanligi, soʻz yasallishi va shakl yasallishida koʻpincha bir xil yoki bir-biriga yaqin affikslarning ishlatilishi esa soʻz yasallishi boʻlimining bevosita morfologiya bilan boglanganligini koʻrsatadi. Shuningdek, soʻz yasashning boshqa usullari uning fonetika va sintaksis bilan munosabatda ekanligini koʻrsatadi.

Soʻz yasallishida qarindosh soʻzlarning tarkibi jihatidan aloqasi, oʻzaro bogʻlanganligi tahlil qilinadi. Shuning uchun soʻz yasallishi sistemasini oʻrganishda har bir konkret morfemaning (ham oʻzak morfema, ham affiksall morfema) soʻz yasovchilik xususiyati aniqlanadi. Shuningdek, grammatik tarkibi turlicha boʻlgan soʻzlarning (tub va yasama soʻzlarning) yangi soʻz hosil qilishdagi rolini belgilash ham muhim ahamiyatga ega. Har bir yasalmada ikki narsa — yasash asosi va yasovchi vosita mavjud boʻladi. Masalan, bilim, hozirgi, yaxshilik soʻzlarida bil, hozir, yaxshi qismi yasash asosi boʻlib, -im, -gi, -ish qismlari yasash vositasidir. Soʻz qoʻshish orqali hosil boʻlgan soʻzlarda esa ikki va undan ortiq yasovchi asos qatnashadi. Bu xil yangi soʻzning maʼnosi bir holatda yasovchi asos vazifasida kelgan qismlari maʼnosiga asoslanadi, shularning birlashuvidan kelib chiqadi: oqqush, tokqaychi, molboqar, temiryoʻl, asallari kabi. Ikkinchi holatda esa bunday soʻzning maʼnosi uning yasovchi asos vazifasidagi qismlari maʼnosidan kelib chiqmaydi, balki har ikki qismning qoʻshilishi natijasida ularning maʼnosidan farq qiladigan yangi maʼno ifodalanadi: oshqozon, tomorqa, qizilishton, boʻrikalla kabi.

Demak, yangi yasallmani hosil qilishda qatnashadigan morfemalar yigʻindisi soʻz yasallishi tarkibini tashkil qiladi. Masalan, bilim soʻzida bil — yasash asosi, -im yasovchi vosita — affiks; paxtachi soʻzida paxta — yasash asosi, -chi — yasovchi affiks.

Soʻz yasallishi tarkibi soʻzning morfema tarkibidan ham, soʻzning morfologik tarkibidan ham farq qiladi. Soʻzning morfema tarkibida har bir maʼnoli qism — morfema ajratiladi. Jumladan, bilimdon soʻzi uch morfemaga boʻlinadi (bil-im-don). Soʻz yasallish tarkibida esa bu soʻz yasash asosi va yasovchi affiks nuqtai nazaridan bilim-don tarzida ikki qismga ajratiladi. Shuningdek, bilimdonlik soʻzi morfemalarga bil-im-don-lik deb ajratilsa, soʻz yasallishi tarkibi boʻyicha bilimdon-lik deb ajratiladi. Soʻzning morfologik tarkibida asosan forma yasash asosi va shakl yasovchi vosita aniklanadi. Soʻz yasash tarkibida esa soʻz yasash asosi va soʻz yasovchi affiks ajratiladi. Masalan, adabiyotshunoslikdan soʻzida adabiyotshunos — soʻz yasash asosi, -lik — yasovchi affiks; adabiyotshunoslik — shakl

yasash asosi, -dan — yasovchi affiks. Demak, soʻz yasash tarkibida soʻzning leksik maʼno anglatadigan qismi, soʻzning morfologik tarkibida esa grammatik maʼno ifodalovchi qismi tahlil qilinadi.

Tilda soʻz yasalishi uchun ham, shakl yasalishi uchun ham koʻpincha affikslar xizmat qiladi. Har ikki holatda ham soʻz yasash asosi yoki shakl yasash asosi va soʻz u yoki shakl yasash vositasi mavjud boʻladi. Ammo soʻzning tarkibini soʻz yasalishi asosi hamda shakl yasalishi asosi nuqtai nazaridan oʻrganish bir-biridan farq qiladi.

Soʻz shakl tarkibida leksik maʼno anglatuvchi qism bilan grammatik maʼno bildiruvchi qism farqlanadi. Soʻz shaklning leksik maʼno bildiruvchi qismi leksema deyiladi. Leksema grammatik maʼno ifodalovchi qism, shuningdek, soʻz yasovchi qoʻshilishi uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Yasash asosi boʻlib kelgan leksema tub yoki yasama boʻladi. Tub leksema morfemalarga boʻlinmaydi: ish-la-rim, bil-aman, oʻqi-dim, sez-gansan kabi soʻzlarning ish, bil, oʻqi, sez qismi tub boʻlib, oʻzakka teng keladi.

Yasama leksema esa tub leksemaga yasovchi affiks kshilishidan yoki birdan ortiq leksemaning qoʻshilishidan xosil boʻladi: ishchi-larga, bilim-larni, sezgir, za-mondosh-larim, chim-qirqar, shoʻr-quduq kabi.

Yasama leksema maʼnoli qismlarga boʻlinadi, chunki tilda yasama leksema bilan yonma-yon tub leksema ham mavjud boʻladi. Jumladan, shaharlik, ishchan, kitob-xon, bugungi, kukar kabi yasama leksemalar maʼnoli qismlarga — morfemalarga boʻlinadi. Chunki hozirgi oʻzbek tilida shularning yasalishiga asos boʻlgan sha-har, ish, kitob, bugun, koʻk kabi leksemalar ham ishlatiladi.

Tilda leksema isteʼmoldan tushib qolsa yoki uning yasama leksema bilan aloqasi, bogliqligi yoʻqolsa, yasama leksemaning morfemalarga boʻlinish xususiyati ham yoʻqoladi, natijada yasama leksema tub leksemaga aylanadi.

Tub leksemalar bilan uzviy aloqada boʻlgan yasama leksemalar tilda ikki holatda — mustaqil ishlatiladigan leksema sifatida ham, affiks yoki boshqa leksema bilan birgalikda, bogliq holda ham mavjud boʻladi. Jumladan, yoʻldosh, goʻzallik, tutkich, devoriy kabilar yasama leksema. Ular hozirgi oʻzbek tilida mustaqil ishlatiladigan yoʻl, goʻzal, tut, devor kabi tub leksemalardan yasalgan. Yuksak, yuksal kabilar ham yasama leksema, lekin ular tarkibidagi yuk, yuksa qismlari hozirgi tilda mustaqil ishlatilmaydi, balki bogliq asos tarzida mavjud.

Tub leksema bilan yasama leksema faqat morfologik jihatdangina emas, balki leksik maʼno anglatishi tomonidan ham bir-biridan farq qiladi. Tub leksemaning maʼnosi bevosita shu leksemaning oʻziga asoslanadi. Yasama leksemaning maʼnosi esa uning tarkibidagi

qismlarning — yasovchi asos va yasash vositasining ma'nolari orqali yuzaga chiqadi. Masalan, daraxt, suv, paxta, tuz, kul kabi tub leksemalar borliqdagi narsalarni bevosita, to'g'ridan-to'g'ri anglatadi, ular shu narsalarning tildagi shartli atamasi hisoblanadi. Daraxtzor, suvchi, paxtakor, tuzdon, qo'lqop singari yasama leksemalarning ma'nosi esa tarkibidagi qismlar ma'nosiga asoslanadi, shular orqali anglashiladi: daraxtzor—«daraxt ko'p bo'lgan joy»; suvchi—«sug'orish, suv berish bilan shug'ullanuvchi shaxs»; paxtakor — «paxta yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs»; tuzdon — «tuz solib qo'yishga mo'ljallangan idish»; qo'lqop — «qo'lga kiyish uchun mo'ljallangan narsa» kabi.

Yasash asosi bo'lib tub leksema ham, yasama leksema ham xizmat qiladi. Masalan, terim, bilim, yig'im, o'rim otlari uchun yasash asosi bo'lib tub fe'l leksemalar xizmat qilgan, terimchi, bilimdon, gulchilik kabi yasama otlarda terim, bilim, gulchi yasama leksemalari yasash asosi bo'lib kelgan, terimchilik, bilimdonlik, to'qimachilik, og'machilik kabi yasama otlarda esa terimchi, bilimdon, tuqimachi, og'machi yasama leksemalari yasash asosi vazifasida kelgan.

So'z tarkibidagi morfemalarni to'g'ri ajratish yasash asosining va yasovchi vositaning tarkibini, chegarasini to'g'ri hisobga olish katta ahamiyatga ega. Jumladan, gulchilik, paxtachilik, baliqchilik kabi yasama leksemalarda gulchi, paxtachi, baliqchi leksemalari yasash asosi hisoblanadi. Ko'pchilik, ozchilik, dehqonchilik kabilarda esa yasash asosi ko'p, oz, dehqon leksemalaridir, chunki tilda ko'pchi, ozchi, dehqonchi shaklidagi leksemalar yo'q.

Yasama leksema tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma bo'ladi.

Sodda leksema tub leksemaga leksema yasovchi affiks qo'shilishi bilan yasaladi: bola-lik, ish-la, dars-lik, terim-chi kabi.

Qo'shma leksema ikki va undan ortiq leksemaning qo'shilishidan hosil bo'ladi: Mirzacho'l, karnaygul, anjirshaftoli, otashqalb, ko'ksulton, tuyatortar kabi.

I.2. QO'SHMA SO'ZLARNING TARIXAN KELIB CHIQISHI

Ko'pchilik tilshunoslarning e'tirofiga ko'ra ikki va undan ortiq so'zning qo'shilishi orqali yangi so'z yasashga kompozitsiya usuli bilan so'z yasash deyiladi. Bu usul bilan asosan qo'shma so'zlar yasaladi: achchiqtosh, Beshariq, qoraqurt, oltingugurt, ko'zoynak kabi.

U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev va boshqa ko'pgina tilshunos-olimlarning fikrlaridan ma'lum bo'ladiki, qo'shma so'zlar tarixan so'z birikmalaridan o'sib chiqqan. Til taraqqiyoti jarayonida so'z birikmasi qismlarining ma'no va grammatik jihatdan yaxlit bir holga kelishi, uning qismlari orasidagi sintaktik munosabatning yo'qolishi hamda ularning bir ma'no markaziga birlashishi natijasida qo'shma so'zga aylanadi. Bu vaqtda birikmaning har ikkala qismi ham o'zining alohida so'zlik xususiyatini yo'qotadi, har ikkalasi

birgalikda yangi tushunchani anglatadi. Masalan, osh va qozon soʻzlarining qoʻshilib ketishi natijasida shu soʻzlarning yakka holatda anglatgan maʼnolaridan farq qilgan yangi maʼnoli soʻz — oshqozon hosil boʻladi. Demak, soʻz birikmasi qoʻshma soʻzga aylanganda, birikma tarkibidagi soʻzlarning aniqlovchilik aloqasi yoʻqoladi, ularning biri ikkinchisini aniqlab kelmaydi, balki har ikki qism birgalikda bir soʻz holiga keladi, bitta tushunchani anglatadi: tomorqa, gulgʻuncha, ottoʻrva, oqqush, muzyorar, Oltinkoʻl kabi.

Qoʻshma soʻzning maʼnosi bir holatda uning qismlari maʼnosi bilan bogʻlangan boʻladi, shu maʼnolardan rivojlanib chiqadi: asalari, ottoʻrva, tokqaychi, anjirshaftoli, oqqush kabi. Ikkinchi holatda esa qoʻshma soʻzning maʼnosi uning qismlari maʼnosidan qisman yoki butunlay uzoqlashgan boʻladi, undan boshqacha maʼno anglatadi: qorakoʻl (teri), ikkiqat, dunyoqarash, koʻkyoʻtal, boshqorongʻi, qoʻziqorin kabi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilining lugʻat tarkibini yangi soʻzlar bilan boyitishda kalkalash ham muhim oʻrin tutadi. Ammo kalkalash yoʻli soʻz yasash usuliga kirmaydi. Chunki kalkalashda soʻzning qismlari boʻlqa til modeliga mos ravishda tarjima qilinadi, ular sunʼiy tarzda birikadi.

Kalkaning toʻliq va yarim kalkalash turlari bor. Toʻliq kalkada boshqa tilga xos soʻz va birikma qismma-qism toʻliq tarjima qilinadi. Bunda soʻzning asl maʼnosi qisman kengayib, boshqa tilga xos soʻzning maʼnosiga muvofiqlashadi: ustq

rma - nadstroyka, yoʻldosh – sputnik, beshyillik — pyatiletka, dunyoqarash — mirovozzreniye, suvosti — podvodniy kabi. Yarim kalkada boshqa tilga xos soʻz va birikmaning bir qismi oʻsha til materiali bilan, bir qismi esa oʻzbek tili materiali bilan beriladi. Bu vaqtda asos boshqa tildan, vosita oʻzbek tilidan boʻlishi yoki bosh soʻz oʻzbek tilidan, ergash soʻz boshqa tildan va aksincha boʻlishi mumkin: mashina-sozlik (mashinostroyeniye), avtomat-lashtirish (avtomatizatsiya), gaz-simon (gazoobrazniy), yil-lik plan (godovoy plan kabi).

Kalkalashda manba boʻlib sodda soʻz, qoʻshma soʻz va soʻz birikmasi xizmat qiladi: eslatma, urgʻu, tinchliksevar, saylovoldi, mehnat intizomi, texnika xavfsizligi.

Soʻz birikmasi tarzidagi kalkalar tarkibini oʻzgartirib boʻlmaydi, bular bir butun turgʻun birikma holida maʼlum leksik maʼnoni anglatishga xizmat qiladi: oliy oʻquv yurti, kun tartibi kabi.

Kalkalash yoʻli bilan hosil boʻlgan turgʻun birikmalarning bir qismi frazeologik birlik tarzida boʻladi: luqma tashlamoq, — brosat repliku, yashirin ovoz berish — taynoye golosovaniye, ovozga qoʻymoq — postavit na golosovaniye, tanqidni boʻgʻmok — zajimat kritiku kabi.

1.3. SO‘Z HOSIL QILISH USULLARI VA KOMPOZITSIYA USULINING UNDAGI O‘RNI

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘z hosil qilish usullari besh turga bo‘linadi:

- 1) affiksatsiya usuli;
- 2) fonetik usul;
- 3) semantik usul;
- 4) kompozitsiya usuli;
- 5) abbreviatsiya usuli.

Biz tanlagan mavzu – kompozitsiya usulining so‘z yasashdagi o‘rnini aniqlash va qiyoslash maqsadida yuqorida keltirilgan usullarning qisqacha xususiyatlariga to‘xtab o‘tishni lozim topdik. Affiksatsiya usuli. Yasash asosiga affiks qo‘shish orqali yangi so‘z hosil qilish affiksatsiya usuli deyiladi: suv-chi, to‘s-iq, so‘z-ma, hozir-gi, ko‘k-ar, ish-chi, ko‘p-ay, tuz-la kabi.

Affiksatsiya usuli bilan so‘z yasashda affikslar, odatda, asosdan keyin qo‘shiladi. Shunga ko‘ra bu usul bilan hosil bo‘lgan yasama so‘zlar «asos+suffiks» tarzida bo‘ladi (sinf-dosh, oq--la, kul-gi, sez-gir, ish-li, yosh-lik kabi). Yasama so‘zlar «prefiks+asos» shaklida ham bo‘ladi. Bu hodisa asosan tojik tilidan o‘zlashgan affikslar orqali so‘z yasashda uchraydi: be-g‘ubor, no-o‘rin, ser-suv, ham-dard kabi. Yasama so‘z tarkibida suffiks ham, prefiks ham kelishi mumkin: be-parvo-lik, no-aniq-lik, bad-baxt-lik.

Affiksatsiya o‘zbek tilida so‘z yasashning eng unumli usullaridan hisoblanadi. Bu usul bilan sodda yasama so‘zlar hosil qilinadi. Affiksatsiya usuli bilan so‘z yasashda ko‘pincha o‘zbek tilining so‘z yasovchi affikslari qo‘llanadi. Shu bilan birga, boshqa tillardan (tojik tilidan) qabul qilingan affikslar ham ishlatiladi: tuz-don, o‘rmon-zor, be-to‘xtov, no-to‘g‘ri kabi. Bunday yasovchi vositalar dastlab tojik tilidan kirib kelgan so‘zlar tarkibida ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik yasovchi affiks sifatida o‘zbek tilidagi so‘zlarga

qam qo‘shilib, yangi so‘zlar yasay boshlaydi.

Fonetik usul. So‘z urg‘usini ko‘chirish orqali so‘z hosil qilish fonetik usul bilan so‘z yasash deyiladi.

So‘z urg‘usining har xilligi ikki so‘zni farqlashga yordam beradi. Masalan, yangi (sifat) —yangi (payt ravishi), hozir (payt ravishi) —hozir (tayyor) kabi. Hozirgi o‘zbek tilida fonetik usul bilan so‘z yasash juda kam uchraydi.

Semantik usul. So‘z ma’nosining o‘zgarishi asosida so‘z hosil qilish semantik yoki leksik-semantik usul bilan so‘z yasash deyiladi. Semantik yoki leksik-semantik usul yordamida so‘z yasash tarixiy taraqqiyot jarayonida tildagi ayrim leksik ma’nolar orasidagi bog‘lanishning yo‘qolib ketishi, so‘zning ayrim shakllarida yangi leksik ma’noning yuzaga

kelishi kabi hodisalar bilan bogliq. Bunday hodisa tilning ko'p yillar davomida rivojlanishi natijasida asta-sekin yuzaga keladi. Masalan, yupqa — qalin emas (yupqa qog'oz — sifat) — yupqa — ovqatning nomi (ot); qirov— «yer betid hosil bo'ladigan yupqa qorsimon zarrachalar» (Kechasi qirov tushibdi) — qirov — «yangi charxlangan pichoq damida qolgan metall zarralari» (qirovi to'kilmagan pi-choq) kabi so'zlarning keyingilari leksik ma'noning o'zgarishi, siljishi natijasida paydo bo'lgan.

Semantik usul bilan so'z yasashda so'zning dastlabki ma'nosi qisman saqlanishi ham, yoqolib ketishi ham mumkin. Masalan, uloq (echkining bolasi)—uloq (sport musobaqasi, ko'pkari), ko'k— tus, rang (ko'k choy — sifat)—ko'k (osmon) singari so'zlarning keyingisida avvalgi so'zning ma'nosi bilan semantik bog'lanish qisman saqlangan. To'garak —«aylana, doira shaklida» (to'garak stol — sifat) — to'garak —«birgalikda mashg'ulot o'tkazish uchun tuzilgan grupp» (adabiyot to'garagi, yosh tabiatshunoslar to'garagi— ot) so'zlaridan ikkinchisi dastlabki ma'nodan uzoqlashgan, undan boshqacha, yangi ma'no anglatadi.

Semantik usul bilan yasalgan so'zlar bir turkum doirasida bo'lishi (qirov — ot, qirov— ot) hamda boshqa-boshqa so'z turkumlariga tegishli bo'lishi mumkin: yupqa — sifat, yupqa — ot kabi.

Birdan ortik o'zak morfemalarni qo'shish orqali yangi so'z hosil qilish **kompozitsiya** usuli deyiladi. Kompozitsiya usuli bilan qo'shma so'zlar hosil qilinadi: tuyaqush, oybolta, havo rang, sotib ol, olib bor. Kompozita - qo'shma so'z demakdir. Sodda so'zda mustaqil ma'noli morfema bitta bo'lsa, qo'shma so'zda birdan ortiq bo'ladi. Chog'ishtiring: temirchi, tortinchoq, boshla, belbog', qo'lqop, asalari.

Agar qo'shma so'z tarkibidagi bir morfema o'z manosini yo'qotgan bo'lsa, sodda so'z sanalaveradi: kechqurun, quloqchin.

O'zlashma so'zlarning morfemalari o'zbek tili uchun uqilmasa, sodda so'z sanaladi: odamshavanda, dardisar, astoydil, santimetr.

Qo'shma so'z so'z birikmasidan quyidagi belgilari bilan farq qiladi:

1. Qo'shma so'zning komponentlari - morfema; so'z birikmasining komponentlari so'zlardir.

2. Qo'shma so'z komponentlari birikib, yaxlitligicha bir ma'no ifodalaydi. So'z birikmalarida komponentlar leksik mustaqilligini saqlaydi. Chog'ishtiring: tuyaqush, oybolta; qora portfelli, o'n besh qavatli.

3. Mustaqil ma'noli so'z bilan yordamchi so'zning birikishidan qo'shma so'z hosil bo'lmaydi. Shunga ko'ra yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan: o'qib bermoq, yoza

boshlamoq, yotib qolmok kabilar qo'shma so'z emas. So'z birikmasi ham emas. Chunki bularning ikkinchisi o'z ma'nosini saqlamagan. Bular fe'lining analitik formalaridir.

4. Qo'shma so'z stabil bo'lib, nutqda tayyor bo'ladi. So'z birikmasi nutq jarayonida yaratiladi: shakarkon (qo'shma so'z shakarning koni (so'z birikmasi)).

5. Qo'shma so'z turg'un birikmaga o'xshaydi. Ammo turg'un birikmalar ko'chma ma'no ifodalaydi: yer yong'oq, bosh barmoq (qo'shma so'z) zangori olov (gaz), zangori kema (mashina), gapning tuzi (ma'nosi), ko'zi ochildi (tushundi).

6. Qo'shma so'z so'z birikmasi bilan omonimlik tashkil qiladi: oqqovun (qovun turi), oq qovun (rang ifodasi), qizil urug' (rang ifodasi), qizilurug' (qovun turi).

7. Qo'shma otlarning bir qismi (bir leksik-grammatik kategoriyadagi so'zlarning boshqa kategoriyaga ko'chishi) konversiya hodisasi bilan bog'liq: muz yorar (muzni yorib o'tadigan paroxod), qo'sh quloq (qo'sh quloqli idish).

8. Qo'shma so'zning komponentlari o'z turg'un tartibiga ega, Masalan: otlarda, odatda, aniqlovchi aniqlanmish: tishcho'tka, kirsovun.

So'z yasash borasida qo'shma so'z atamasi juft so'zlarni: yosh-qari (hamma) qovun-tarvuz (poliz), erta-kech (doim); qisqartmalarni (BMT, XXR), shuningdek, so'z takrori yo'li bilan hosil qilingan so'zlarni ham o'z ichiga oladi.

Abbreviatsiya yo'li bilan so'z yasash o'zbek tilining keyingi davrda erishgan yutuklaridan biridir. Abbreviatura qo'shma qisqartma so'zlar bo'lib, ular bir so'z kabi qo'llanadi. O'zi maxsus affikslar ham oladi: Rayijrokomdan keldi so'z yasashning bu turi ot turkumiga xosdir.

Takror yo'li bilan so'z yasash (paqpaq, bibip, kuku) qadimgi ko'rinishdir.

Takror ikki xil:

1. Odatdagi takror.

2. Ikkilanish (udvoyeniya).

Oddiy takror ma'noni kuchaytiradi, ekspressivlik beradi; tezroq -tezroq yur. O'ylab-o'ylab bir fikrga keldi. Ikkilanish so'z qo'shishning bir ko'rinishi bo'lib, takrorlanayotgan elementlarining bir xilligi bilan xarakterlanadi: Tur-tur boshlandi, bibip kelyapti, qoch-qoch tugadi.

Takror so'z yasash vositasi bo'lganida, so'z qo'shish hodisasi bilan o'xshashlik tug'diradi. Qiyoslang: Kuku (qush), Ko'ksuv (joy oti) Grammatik vosita bo'lganida esa affiksatsiya bilan yaqinlashadi. Kim-kim keldi? -Kimlar keldi? -Ko'plik ma'nosi ifodalanadi

Takror yo'li bilan yasash bir kancha ko'rinishlarga ega.

1. Taqlid so'z ikkilanib, shu tovush bilan xarakterlanadigan predmetning nomi hosil qilinadi: shaqshaq (qush), tutu (tovuq), pat-pat (mototsikl).

2. Ot turkumiga xos soʻzlar ikkilanib, shu soʻz ifodalagan predmet bilan bogʻlangan oʻyin nomi hosil qilinadi: ot-ot, xola-xola, kino-kino.

Juft soʻzlar strukturasiga koʻra ikkilanish yoʻli bilan yasalgan soʻzlarga ancha oʻxshasa ham, aniqlovchilik tipidagi qoʻshma soʻzlardan bir qancha tomonlari bilan ajralib turadi. Ular quyidagilar:

1. Juft soʻzlar orasidagi bogʻlanish tenglanish asosida, qoʻshma soʻzlarda esa tobelanish asosidadir. Chogʻishtiring: eski-yangi eski va yangi (har xil), katta-kichik- katta va kichik (hamma); belbog, koʻzoynak.

2. Juft soʻzlar bir turkum doirasida boʻladi. Qoʻshma soʻzlar turli soʻz turkumlaridan ifodalangan boʻlishi mumkin. Chogʻishtiring: qovun-tarvuz, eski-yangi, beshotar, oqtepa.

3. Qoʻshma soʻz bir bosh urgʻuga ega boʻladi, juft soʻzlarda har ikki komponent ham urgʻuli boʻladi.

Juft soʻzlarning asosiy semantik xususiyati umumlashtirish, jamligni bildirishdir: erta-kech, (doim), olma-oʻrik (hoʻl mevalar), jiyda-mayiz (quruq mevalar).

Demak, juft usuldagi soʻz yaslashida birinchidan, juftlangan soʻz yangi mano berishi kerak. Ikkinchidan, shu tilda umumlashtiruvchi leksik maʼno ifodalashi kerak: ota-ona, er-xotin, kelin-kuyov juft soʻz yasalishi emas. Ular rus tilida roditeli, suprug, molodojyoni maʼnosini beradi. Bularda umumlashtiruvchi leksik maʼno yoʻq.

II BOB. SO‘Z TURKUMLARIDA KOMPOZITSIYA USULI BILAN SO‘Z YASALISHI

II.1. HOZIRGI O‘ZBEK TILIDA KOMPOZITSIYA USULI BILAN OT VA SIFATLARNING YASALISHI

Ishning oldingi bo‘limida o‘zbek tili so‘z yasalishi sistemasi, uni shakllantiruvchi til birligi, shu til birligi asosida so‘z yasalishi sistemasining shakllanishi bilan bogliq hodisalar, so‘z yasalishi sistemasiga oid asosiy tushunchalar, ulardan har birining mohiyati kabi masalalar yuzasidan ma’lumot berildi. Har bir so‘z turkumidagi so‘z yasalishi sistemasini tadqiq etishda ana shu aytilganlar asosida ish ko‘rish talab etiladi. Shunday yo‘l tutilganda, har bir so‘z turkumidagi so‘z yasalishi sistemasi yuzasidan ijobiy natijalarga erishish, to‘g‘ri xulosalarga kelish bilan birga bu masaladsh har bir so‘z turkumiga mansub o‘ziga xosliklar ham namoyon bo‘ladi. Shuningdek, muayyan so‘z turkumidagi so‘z yasalishi sistemasiga oid ba’zi hodisalarning mohiyatini to‘g‘ri belgilash so‘z yasalishi sistemasi uchun umumiy bo‘lgan ba’zi murakkab hodisalarning mohiyatini to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Bu ishda barcha so‘z turkumlaridagi so‘z yasalishi sistemasi tadqiq etilmaydi. faqatgina bir masala, ya’ni so‘z turkumlarida so‘z yasalishi sistemasining bor-yo‘qligi va buning sabablari haqida A.Hojiyev qisqa tarzda o‘z mulohazalarini bildirishni lozim topadi.

So‘z yasalishi sistemasining til birligi yasama so‘z bular ekan avvalo, u yoki bu so‘z turkumida so‘z yasalishi tizimining bo‘lish-bo‘lmasligi, unda yasama so‘zga xos mohiyatga, xususiyatlarga zga bo‘lgan til birligining - shu turkumga mansub yasama so‘z(lar)ning bor-yo‘qligi va buning sabablari asosida masalani hal* etish kerak bo‘ladi. Qolaversa, so‘z yasalishi sistemasini tashkil etuvchi har bir yasama so‘zlar guruhi birdan ortiq yasama so‘zdan tashkil topar ekan, har bir so‘z turkumida shunday guruh(lar)ni tashkil etuvchi yasama so‘zlar bor-yo‘qligi aniq belgilanishi va masalani shu asosda hal etish kerak bo‘ladi.

Masalaga shu asosda yondashilsa, so‘z yasalishi hodisasining, so‘z yasalishi sistemasining faqat mustaqil so‘z turkumlari uchun xos bo‘lishi tabiiy holdir. Xuddi shu talabga ko‘ra mustaqil so‘z turkumlaridan son va olmosh turkumlari so‘z yasalish hodisasiga, so‘z yasalishi sistemasiga ega emas (Shu bons ham o‘quv yurtlari uchun chiqarilgan o‘zbek tilidan qo‘llanma va darsliklarda son va olmosh turkumlariga bag‘ishlangan bo‘limlarda so‘z yasalishi hodisasi keltirilmaydi). Faqatgina ravish turkumida so‘z yasalishi masalasida turli fikr-mulohazalar davom etyapti.

Ma’lumki, oliy o‘quv yurtlari uchun nashr etilgan o‘zbek tili dareliklarining barchasida, boshqa mustaqil so‘z turkumlari qatori, ravish turkumida ham ravish yasalishi alohida mavzu sifatida beriladi. Demak, o‘zbek tilida ravish yasalishi hodisasi borligi deyarln barcha mutaxassislar tomonidan tan olinadi. Biroq masalaga yuqorida aytilgan talablar

asosida yondashilsa, o'zbek tilida ravish so'z turkumining so'z yasalishi sistemasiga ega emasligi inkor etib bo'lmaydigan fakt ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu haqda maxsus maqolamizda o'z mulohazalarimizni bildirgan edik. Lekin o'zbek tilida ravish yasalishi hodisasi borligini tasdiqlovchi fikrlar keltirilmagan holda, jumladan, bu masaladagi bizning qarashlarimizni inkor etadigan dalillar keltirilmagan holda o'zbek tilida ravish yayealishi hodisasi, ravish yasalishi sistemasi borligini da'vo qiluvchi ishlarning yangi-yangilarini hozir ham kuzatish mumkin. Ravnsh turkumiga bagishlangan birgina nomzodlik_dissertatsiyasining o'ziyok fikrimizni tasdiqlaydi. "Ana shu holat bu masalaga jiddiyrok munosabat bildirishni taqozo etyapti. Qolaversa, o'zbek tili so'z yasalishi sistemasining nazariy masalalariga bag'ishlangan keyingi ishlarimiz o'zbek tilida ravish turkumi so'z yasalishi sistemasiga ega emasligini yanada aniqlashtirdi. Ana shu dalillarni ham mutaxassislar e'tiboriga havola etishni lozim topdik.

Biror so'z turkumida so'z yasalishi sistemasi bor-yo'qligi haqida fikr yuritilar ekan, avvalo, bu so'z turkumida yasama so'zga xos mohiyatga ega bo'lgan til birligi, aniqrog'i, so'z yasalish asosi va so'z yasovchidan iborat tarkibga ega bo'lgan til birliklari - yasama so'zlar bor-yo'qligi belgilanishi kerak bo'ladi. Masalaga shu tarzda yondashishning o'ziyoq o'zbek tilida ravish so'z turkumi so'z yasalishi sistemasiga ega emasligini ma'lum qilib qo'yadi. Buni o'zbek tilida eng faol, sermaxsul ravish yasovchi deb ta'riflanayotgan birgina -cha affiksi misolida aniq ko'rish mumkin. O'zbek tili ravish yasalishi sistemasi haqida fikr yuritilgan ishlarning barchasida -cha affiksining sermaxsul ravish yasovchi ekanligi aytiladi va bu fikrni tasdiqlash uchun misollar keltiriladi. Biroq keltirilgan misollar ularning tarkibidagi -cha affiksining ravish yasovchi, umuman, so'z yasovchi emasligini, uning ma'nosi (qanday ma'noli ravish yasashi) haqida aytilgan gaplar ham mazkur affiks so'z yasovchi bo'la olmasligini aniq tasdiklaydi: «1. -cha. Bu affiks ot, sifat, olmosh va fe'llarga qo'shilib, harakatning qay tarzda bajarilishi, harakat protsessi so'zning negizida ifodalangan predmet, holatga o'xshatilganligi yoki bir belgining boshqa belgi bilan o'xshashligi ma'nolarini anglatgan ravishlar yasaydi: hozircha yigitcha, bolacha, yashirinchacha, eskichacha, yangichacha, iyushganichacha, senchacha, bizningchacha, atroflichacha, ilgarichacha, keyinchacha, bulturgichacha,... o'zbekchacha, ukrainchacha, kechagichacha, qisqachacha, o'zimchacha, bilgaigshchacha" (Boshqa ishlarda ham bu affiks haqida deyarli shunday fikrlar bildirilgan). Diqqat bilan qaralsa berilgan ta'rif va keltirilgan misollarning o'ziyoq -cha affiksi so'z yasovchiga xos xususiyatlarga ega emasligini aniq ko'rsatadi. Masalan, -cha affiksli so'z harakat protsessi so'zning negizida ifodalangan predmet, holatga o'xshatilganligi yoki bir belgining boshqa belgi bilan o'xshashligi ma'nolarini anglatar ekan, bu so'zlar tarkibidagi "-chani so'z yasovchi (ravish yasovchi) deyish mumkin bo'lmaydi, demak, aytilgan fikr (mualliflar fikri) "-chani ning so'z

yasovchi emasligini tasdiqlayapti. Chunki o'xshatish, o'xshashligini ifodalash so'z yasovchilarga xos xususiyat emas, so'z yasovchi yangi lug'aviy ma'noli til birliga yasama so'z xosil qiladi. Qolaversa, birinchidan, hozircha, yigitcha, bolacha, atrofliyaa ... so'zlari "so'z yasalish asosi + so'z yasovchi"dan iborat tarkibli birlik - yasama so'z emas, ikkinchidan, shoshganicha, bizningcha, o'zimcha, bilganimcha so'zlaridagi -cha so'z shakliga kushilyapti. So'z yasovchi birlik esa bunday xususiyatga ega emas. Uchinchidan, ukratcha, bolacha, shgarigicha yasama so'z - lug'aviy birlik emas, shuning uchun izohli lug'atlarda bosh so'z (izohlanuvchi so'z) sifatida berilmaydi va hokazo.

Xullas, o'zbek tilidagi -cha affiksi so'z yasovchiga xos xususiyatlarga ega emas. U o'z mohiyatiga ko'ra shakl yasovchi morfemalarga, shuningdek, ko'makchilarga o'xshaydi.

-cha affiksi so'z yasovchi birlikka xos xususiyatlarga ega emasligi bois ba'zi so'z shakllariga birikkanda ham o'z ma'nosini, mustaqilligini saqdaydi. Masalan, do'stlarcha, qahramonlarcha so'zlaridagi -cha affiksi otning ko'plik shakliga: tikshgancha, yugur-gancha so'zlarida fe'lning sifat-dosh shakliga qo'shilgan. O'zbek tili ravish yasalishi haqida fikr yuritilgan ishlarda bunday so'zlar tarkibidagi "larcha" va "gancha" -cha affiksining -lar, -gan affiksiga birikishidan hosil bo'lgan qo'shma affikslar deb ta'riflanadi. Vaholonki, bunday so'zlarda uning tarkibidagi -lar va -cha, -gaya va ~cha affikslarining birikishidan ravish yasovchi larcha va gancha affikslari yuzaga kelgan emas, aksincha, -lar, gan va -cha affikslari alohida-alohida xisoblanadi. Qolaversa, so'z yasovchi qo'shma affikslarning (morfemalarning) yuzaga kelishida amal qiladigan qonuniyatlarga ko'ra ham -cha morfemasining otning ko'plik shaklini yasovchi -lar, fe'lning sifat-dosh yasovchi -gan affiksiga birikishi va qo'shma affiks {-larcha, -gancha "affikslari")} yuzaga kelishi mumkinligini inkor etadi. Aniqroq qilib aytganda, o'zbek tilida bnrndan ortiq shakl yasovchi morfemaning o'zaro birikuvidan so'z yasovchi, jumladan, ravish yasovchi qo'shma affiksning yuzaga kelishi hodisasi »?k va bo'lishi mumkin ham emas.

Aytilganning barchasidan ma'lum bo'ldiki, -cha morfemasi so'z yasovchi morfemalarga xos mohiyatga ega emas. Shuningdek, uning boshqa biron-bir morfema bilan birikishidan yangi bir ravish yasovchi yuzaga kelgan emas. Ravish yasalishi haqida fikr yuritilgan ishlarda ravish yasovchi deb qaralgan affikslarning birortasi ham ravish yasovchi, umuman, so'z yasovchi emas. Shunday ekan, ya'ni so'z yasalishi guruhlari (sistemalari) birdan ortiq yasama so'zlardan tashkil topar ekan, o'zbek tili ravish turkumining so'z yasalishi sistemasiga egaligi haqida gap bo'lishi mumkin emas. Bizningcha, -cha morfemasini pokategorial so'z shaklini yasovchilar qatorida, ya'ni tilshunoslikning morfologiya tilshunoslikning morfologiya bo'limida o'rganish to'g'ri va maqsadga muvofiq bo'ladi. Ravish yasovchi deb qaralayotgan boshqa affikslarning ba'zilari, umuman, so'z yasovchi

emas (masalan, -dek affiksi) yoki sanoqli soʻzlar tarkibida uchraydi, demakki, soʻz yasalishi sistemasini yoki shakl yasalishi sistemasini (morfologik sistemani) shakllantiruvchi birliklarni hosil qilmaydi (masalan, kuniga, yoppasiga, yigitchasiga soʻzlari tarkibidagi -iga, -siga, -chasiga shular jumlasiga kiradi).

Ravish yasalishi haqidagi gaplarni yakunlar ekanmiz, bir faktni alohida taʼkidlashni lozim topamiz. Qizigʻi shundaki, oʻzbek tili ravish yasalishi hakida fikr yuritilgan ishlarda yasama ravish deb keltirilgan fakt-misollarning barchasi oʻzbek tilida ravish yasalishi hodisasi, ravish yasalishi sistemasi borligini emas, aksincha, yoʻqdigini isbotlashga xizmat qiladi. Bu holat amalda qanday natijalar berishini oʻzingiz tasavvur qilavering. Bunday holatning mavjudligi esa soʻz yasalishi sistemasi til birligining mohiyati haqida aniq tasavvurga ega emaslik, ravish turkumida shunday til birligi bor-yoʻqligini belgilashda yasama soʻzga xos yuqorida koʻrilgan xususiyatlar asosida ish koʻrmaslik oqibatidir.

Xullas, yasama soʻz - lisoniy birlik. Chunki u kishi miyasi xotirasi markazida mavjud holdagi birlik hisoblanadi. Yasama soʻz bir marta yasaladi va lugʻat sathining birligiga aylanadi. Tayyor holdagi til birligi boʻlganidan yangi soʻzlar yasalishida soʻz yasali sh asosi vazifasida ham qatnashadi. Lugaviy birlik sifatida lugʻatlarda beriladi, izohli lugʻatlarda maʼnosi izohlanadi. Lugʻaviy birlik sifatida leksikologiyani ng predmeti - oʻrganish obyekti hisoblanadi. Yasama soʻz lugʻaviy birlik sifatida leksik-semantik guruhlar ni shakllantirish uchun xizmat qiladi - leksik-semantik guruhlar ni ng tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yasama soʻz yasalma birlik sifatida soʻz yasali shi sistemasini ng til birligi hisoblanadi. Bu til birligi bilan bogʻlik, holda yuz beradigan barcha hodisalar tilshunoslikni ng «Soʻz yasali shi» boʻlimida oʻrganiladi.

Yasama soʻz ni ng har biri oʻziga xos mohiyatga ega boʻlgan ikk p qismdan — soʻz yasali sh asosi va soʻz yasovchidan tarkib topadi. Soʻz yasali sh asosi vazifasida lugʻaviy maʼnoli birlik - tub yoki yasama soʻz qoʻllanadi: terim (ter - soʻz yasali sh asosi), terimchi (te rim - soʻz yasali sh asosi). Yasama soʻz tarkibida soʻz yasali sh asosi mustaqil til birligi, yaʼni soʻz (leksema) hisoblanmaydi. Shuni ng uchun ham «soʻz yasali sh asosi» termini leksikologiya emas, soʻz yasali sh baxsiga xos tushunchani bildiradi. Har bir yasama soʻz soʻz yasa li sh^asosini ng muayyan maʼnosidan xosil kilinadi. Shuni ng uchun ham bir soʻz yasovchi yordamida yasalgan bir necha yasama soʻz tarkibida soʻz yasali sh asosi muayyan maʼnoga ega boʻlgan lu-aviy birliklardan boʻladi. Masalan, -chi affiksi bilan yasalgan otlar, -la affiks bilan yasalgan. feʼllari ni ng soʻz yasali sh asoslariga eʼtibor bering.

Yasama soʻz ni ng ikkinchi tarkibiy qismi soʻz yasovchi morfema hisoblanadi. Har bir yasama soʻzda soʻz yasali sh asosi bitta boʻlganideka soʻz yasovchi ham bitta boʻladi.

Masalan, temirchilik yasama soʻzining (kasb otining)_soʻz yasallsh asosi temirchi (yasam soʻz), -lik soʻz yasovchi (kasb oti yasovchi) morfema.

Soʻz yasallsh asosi har bir yasama soʻzda bitta boʻlsa, har bir soʻz yasovchi birdan ortiq soʻz yasaydi, binobarin, birdan ortiq yasama soʻzlar tarkibida mavjud boʻladi. Bu hol soʻz yasovchining maʼnosi umumiy maʼno boʻlishi bilan bogʻlik. Masalan, -chi soʻz yasovchi. juda koʻp miqdorda shaxe oti yasaydi va shu shaxs otlarining tarkibida mavjud boʻladi, ularning barchasida shaxs maʼnosi bilan (umumiy maʼno bilan) qatnashadi. Soʻz yasallsh asosi esa bu yasama otlarning har birida alohida soʻzdan boʻladi va muayyan lugʻat maʼno bilan qatnashadi. Soʻz yasovchi birlik umumiy maʼnosi bilan yasama soʻzlarni birlashtiradi, guruhlaydi.

Yasama soʻzning maʼnosi soʻz yasallsh asosi va soʻz yasovchining maʼnosidan yuzaga keladi va bu maʼno lugʻaviy maʼno (leksik maʼno) hisoblanadi. Bu maʼnosi bilan yasama soʻz leksik sathning til birligi hnsooblanishi yuqorida aytildi. Yasalma birlik sifatida soʻz yasallshi sistemasining til birligi boʻlishi ham aytildi. Soʻz yasallshi sistemasining til birligi — yasama soʻzlar maʼlum umumiy belgi asosida muayyan guruhlarni tashkil etadi. Ana shu umumiy belgi, umumiy maʼno yasama soʻzlarni guruhlovchi maʼno hisoblanadi. Shunga koʻra bu maʼnoni, oʻz mohiyatiga koʻra, “guruhlovchi maʼno” deb yuritish, yaʼni shu soʻz birikmasini termin sifatida qoʻllash maqsadga muvofiq boʻladi, deb uylaymiz.

Bir guruhlovchi maʼno bilan birlashgan yasama soʻzlar soʻz yasallshining bir tipini tashkil etadi va har bir soʻz yasallshi tipi kichik bir soʻz yasallshi sistemasi hisoblanadi. Demak, soʻz yasallshi sistemasi soʻz yasallshi tiplari misolida tadqiq, etiladi. Bu bilan soʻz yasallshi sistemasining shakllanishi bilan bogʻlik barcha hodisalarning mohiyatini aniq va toʻla yoritish mumkin boʻladi. Soʻz yasallshi bilan boglik hodisalarni soʻz yasovchilar misolida oʻrganish esa bu sistemaga xos barcha hodisalarni qamrab ololmaydi, chunki har bir yasama soʻzning, yasama soʻzlar guruhining mohiyatini soʻz yasallshi asosidan xoli holda yoritish mutlaqo mumkin emas, zero, soʻz yasallshi sistemasining til birligi soʻz yasovchi emas, balki yasama soʻzdir. Yasama soʻzning mohiyatini faqat soʻz yasovchining oʻzi qayd eta olmas ekan, soʻz yasallshi bilan bohlik, soʻz yasallshi sistemasiga oid hodisalarning mohiyatini soʻz yasovchi misolida yoritish mumkin emasligi oʻz-oʻzidan maʼlum.

Soʻz yasallshi tiplarining har biri soʻz yasallshining kichik bir sistemasini tashkil etar ekan, soʻz yasallshi sistemasi bilan bogʻliq, soʻz yasallshi sistemasining shakllanishi bilan bogʻliq hodisalarning mohiyatini soʻz yasallshi tiplari asosida yoritish mumkin ekan, bunda soʻz yasallshi kategoriyasi, soʻz yasallshi paradigmasi birikmalarini termin sifatida qoʻllashga ehtiyoj qolmaydi.

Yasama soʻz soʻz yasallish asosi va soʻz yasovchidan yuzaga kelar ekan, bu til birligiga xos xususiyatlarni ana shu ikki qiyem misolida yoritish, izohlash kerak boʻladi. Masalan, soʻz yasallishidagi mahsulli-mahsulsizlik, sermahsul-kammahsullik hodisasi shu vaqtga qadar soʻz yasovchiga tegishli hodisa deb qaraladi va soʻz yasovchi misolida oʻrganib kelinadi. Vaholonki, soʻz yasovchining mahsulli-mahsulsiz yoki sermahsul-kammahsul boʻlishi tilda yangi soʻz yasallishi uchun asos (soʻz yasallish asosi) boʻladigan yangi soʻzlarning paydo boʻlayotgan-boʻlmayotganligi, bunday soʻzlarning koʻpligi yoki kam boʻlishiga bogʻliq. Shunga qarab soʻz yasallishining yangi tiplari yuzaga keladi yoki yuzaga kelmaydi, tilda bor yasama soʻzlar guruhi yangi yasama soʻzlar bilan toʻladi, kengayadi yoki bunday hodisa yuz bermaydi. Demak, bu hodisalar soʻz yasovchining oʻziga tegishli emas.

Soʻz yasallishi hodisasi mustaqil soʻz turkumlarida mavjud. Mustaqil soʻz turkumlarining ham ot, sifat va feʼl turkumlari soʻz yasallishi sistemasiga ega. Yasama soʻzning va soʻz yasallishi tiplarining mohiyati asosida ish koʻrilsa, buning sabablari, jumladan, oʻzbek tilida ravish yasallishi hodisasi yoʻqligi, ravish turkumi soʻz yasallishi sistemasiga ega emasligi ham maʼlum boʻladi. Shu asosda eʼtibor qaralsa, yasama ravish deb keltirilayotgan fakt-misollarning barchasi oʻzbek tilida ravish yasallishi hodisasi ham, yasama ravishlar ham yoʻqligini tasdiqlaydi deb xulosa qiladi A.Hojiyev.

Biroq biz bu fikrga qoʻshila olmaymiz va ravish soʻz turkumi ham kompozitsiya usuli bilan yasallishi mumkin degan farazga qoʻshilamiz.

Koʻpchilik tilshunoslarning fikridan kelib chiqadigan boʻlsak, soʻz yasallishi hodisasi asosan mustaqil turkum soʻzlari uchun xos. Ayniqsa ot va sifat turkumlarining tarkibi doim yangi yasalmalar va yangi oʻzlashtirmalar bilan boyib turadi.

Hozirgi oʻzbek tilining lugʻat tarkibida ot turkumi juda koʻp soʻzlarni birlashtiradi. Boshqa soʻz turkumlariga nisbatan ot turkumining yangi soʻzlar bilan boyib borishi ancha faol va uzluksiz davom etadi. Ot turkumining boyib borishi oʻzbek tilining oʻz ichki vositalari asosida hamda boshqa tillarning taʼsiri asosida voqe boʻladi.

Hozirgi oʻzbek tilida otlar yuqorida koʻrsatib oʻtilgan barcha usullar bilan, shu jumladan kompozitsiya usuli bilan ham yasalladi.

Ikki va undan ortiq asosning qoʻshilishi orqali ot hosil qilish kompozitsiya usuli bilan ot yasash deyiladi. Kompozitsiya usuli bilan asosan qoʻshma otlar yasalladi. Qoʻshma otlarning tuzilishi aslida soʻz birikmasiga oʻxshaydi: qoʻshiluvchi qismlaning har biri mustaqil soʻzga teng boʻladi. Tilning tadrijiy taraqqiyoti natijasila birikma qismlari orasidagi sintaktik aloqa yoʻqoladi, yaxlit bir maʼno anglatgan yangi leksik birlik- qoʻshma soʻz hosil boʻladi. Bu hodisa asta-sekinlik bilan tilda qoʻshma soʻz yasash qolipiga aylanib qoladi. Qoʻshma soʻz yasallishi uun asos boʻlgan bu qismlar oʻzining dastlabki maʼnosini qisman yoki

butunlay yo'qotadi, ikkalasi birgalikda boshqa yangi leksik ma'no anglatadi boshlaydi. Masalan, qo'zi bilan qorin so'zlarining har qaysisi alohida leksik birlik, o'z ma'nosiga ega. Ularning qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'ziqorin so'zi avvalgi so'zlarning ma'nosidan boshqa ma'noni, narsaning nomini bildiradi. Qo'l-qop, Olti-ariq, Qora-qishloq, olma-bosh, SHo'r-quduq kabi yasamalar ham shu asosda hosil bo'lgan.

Angilovchi bilan aniqlanmishga teng qismlarning qo'shib ketishi natijasida hosil bo'lgan bunday qo'shma otlar asli tuzilishi jihatidan qaratqichli birikma (qo'qonarava, asaldari, qo'lqop, oshqozon, burijar, qo'lyozma kabi) hamda sifatlovchili birikma tarzida bo'ladi: Oqqo'rg'on, beshbarmoq, Yettisuv, baqaterak, ko'richak, o'g'ilon, Qoratepa kabi.

Tarkibidagi qismlari qanday turkum so'zlari bilan ifodalanishiga qarab qo'shma otlar quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi:

1. Ikki otdan iborat bo'ladi. Bu qo'shma otlar:

a) asli qaratuvchilik munosabatida bo'lgan ikki otning qo'shib ketishidan hosil bo'ladi: ko'z-oynak, bilag-uzuk, bel-bog', osh-pichoq, tom-orqa kabi;

b) asli sifatlovchilik munosabatida bo'lgan ikki otning qo'shib ketishidan hosil bo'ladi: oltin-gugurt, tosh-ko'mir, tilla-qo'ng'iz, sada-rayhon kabi.

2. Sifat va otdan iborat bo'ladi: Qora-ko'l, Katta-qo'rg'on, Oq-saroy, achchiq-tosh, ko'k-yo'tal, oq-qush, Ko'k-tosh, Qizil-tepa, Yangi-qo'rg'on kabi.

3. Son va otdan tarkib topgan bo'ladi: To'rt-ko'l, uch-burchak, Uch-qo'rg'on, Besh-yog'och, Uch-quduq, besh-barmoq, sakkiz-oyoq kabi.

4. Ot hamda fe'lining sifatdosh yoki harakat nomi shakllaridan iborat bo'ladi: ot-boqar, beshik-tervatar, tuya-tortar, o'rin-bosar, muz-yorar, kunga-boqar, bo'ri-bosar, dunyo-qarash kabi. Ba'zan ot bilan aniq o'tgan zamon shaklidagi fe'lining birikuvidan iborat bo'ladi: Qor-yog'di, Soy-keldi, gurs-ketdi, go'sht-kuydi kabi.

5. Ikki fe'ldan iborat bo'ladi. Bunday qo'shma otlarda birinchi fe'l ravishdosh shaklida, ikkinchi fe'l esa sifatdosh va harakat nomi shaklida bo'ladi: ishlab chiqarish, iskabtopar, olib sotar, izlab topar kabi.

6. Son (ba'zan olmosh) bilan fe'lining sifatdosh shaklidan iborat bo'ladi: besh-otar, besh-ko'tarar, o'zi-bo'larchilik.

Qo'shma otlardan tashqari, turg'un birikma tarzidagi otlar ham bo'ladi. Bunday otlar ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topadi, bu so'zlar orasida aniqlovchilik munosabati saqlangan bo'ladi. Bunday birikma tarkibidagi so'zlarning hammasi birgalikda yaxlit bir tushunchani anglatadi. Turg'un birikma tarzidagi qo'shma otlarning keyingi qismi ko'pincha uchinchi shaxs egalik affiksini olgan bo'ladi: mehnat daftarchasi, xalq maorifi bo'limi, Oliy Majlis kabi.

Turg'un birikma tipidagi qo'shma otlar tarkibidagi so'zlarning o'rnini o'zgartirib bo'lmaydi: Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi.

Bulardan tashqari, ruscha-baynalmilal so'zlarni kalka qilish asosida hosil bo'lgan qo'shma otlar ham anchagina. O'zbek tilida, rus tilidan aynan qabul qilingan bronepoyezd, general-mayor, sotsial-demokrat, avtostansiya, magnitometr kabi o'zlashtirmalar bilan bir qatorda, fotomuxbir, yarimavtomat, kinoyulduz, teletomoshabin, aeroiqlim kabi yarim kalka tipidagi qo'shma otlar ham keng qo'llanadi. Bu turdagi otlar tarkibida quyidagi baynalmilal qismlar qatnashadi:

avia- (lat, avis- "qush"). Qo'shma otning birinchi qismi vazifasida "aviatsiyaga aloqadorlik", "shunga xoslik" ma'nolarini anglatadi: aviabo'linma, avialoqa, aviamaktab, aviapurkagich kabi;

avto (yunoncha avtos - "o'zi"). Qo'shma otning birinchi qismi vazifasida "o'ziga xos", "o'ziga aloqador" ma'nolarini, shuningdek, "o'zi yurar" ma'nosini bildiradi: avtosurat, avtoyo'l, avtodo'kon, avtoxo'jalik, avtopoyga, avtosug'orgich;

agro (yunoncha agros - "dala"). Qo'shma otning birinchi qismi bo'lib, "agronomiyaga aloqador" ma'nosini bildiradi: agoroqlim, agorotarg'ibot, agroo'rmon, agroqoida, agromintaqa kabi;

gidro (yunoncha hydor - "suv namlik"). Qo'shma otning birinchi qismi bo'lib, "suvga aloqador" ma'nosini bildiradi: gidroinshoot, gidrokimyo, gidroparma kabi;

radio (lotincha radio - "nur tarqataman"). Birinchi qism vazifasida kelib, "radioga xos", "radioga aloqador" ma'nolarini bildiradi: radito'lqin, radioo'lchov, radiochiziq, radioaloqa, radioasbob, radiomarkaz kabi;

foto (yunoncha photos - "yorug'lik"). Qo'shma otning birinchi qismi vazifasida kelib, "fotografiyaga oid" ma'nosini anglatadi: fotoqog'oz, fotomuxbir, fotokimyo, fotonusxa, fotohujjat, fotosurat kabi;

kino (yunoncha kineo - "harakat qilaman"). Qo'shma otning birinchi qismi vazifasida kelib, "kinoga aloqador" ma'nosini anglatadi: kinotomoshabin, kinoyulduz, kinosan'at, kinomaydon, kinoqissa kabi;

bio (yunoncha bios - "hayot"): bioiqlim, biokimyo kabi;

tele (yunoncha tele - "uzoq"): teletomoshabin, teleyangilik, telehikoya, teleboshqaruv kabi.

Ot so'z turkumi bilan bir qatorda, sifat ham to'xtovsiz ravishda yangi so'zlar bilan boyib boradi. Sifat turkumi asosan yangi so'z hosil qilish bilan boyib boradi. Shuningdek, boshqa tillardan, jumladan, rus tilidan yangi so'zlar qabul qilish orqali ham sodir bo'lgan: dokumental, aktual, dialektual, progressiv, effektiv, federativ, revolyutsion, traditsion,

redaksion, reaksion kabi sifatlar rus tili orqali shu shaklida qabul qilingan. Bu sifatlardagi –al, -iv, -on kabi elementlar faqat shu soʻzlar tarkibidagina keladi, shu tarkibdan ajratilmaydi. Bular oʻzbekcha soʻzlardan yangi sifat xususiyatiga ega emas. Tojik tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlar tarkibidagi sifat yasovchi affikslar esa asrlar davomida tilimizga singib ketishi natijasida oʻzbekcha soʻzlardan ham sifat yasay oladi. Bu affikslar endilikda oʻzbek tilining faol soʻz yasovchilari qatoriga oʻtgan: dongdor, silmoqdor, bilimdon, sersuv, serunum, nooʻrin, beomon kabi.

Otlar singari sifatlar ham affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan yasaladi. Bu ikki usul orqali sifat yasashda affisatsiya usuli ayniqsa mahsuldor hisoblanadi.

Hozirgi oʻzbek tilida kompozitsiya usuli bilan sifat yasalishi ham mahsuldor usullardan hisoblanadi. Kompozitsiya usulida ikki va undan ortiq asosning qoʻshilishi natijasida belgi bildiruvchi yangi soʻz – qoʻshma sifat hosil boʻladi. Qoʻshma sifat qismlari orasidagi sifatlovchilik munosabatining yoʻqolishi natijasida ular qoʻshilib ketib, yaxlit bir leksik birlik sifatida belgi maʼnosini anglata boshlaydi va qoʻshma sifatga aylanadi: olachipor, qimmatbaho, toshbaqa kabi.

Qoʻshma sifatni sifat birikmalardan farqlash lozim. Sifat birikma tarkibidagi qismlarning sifatlovchilik munosabati saqlangan boʻladi, ular birikma holida boshqa bir otga bogʻlanadi va narsaning belgisini bildiradi: ikki xonali (uy), besh qirrali (yulduz), yuz katakli (shashka), koʻp millatli (jamoʻa) kabi. Shu kabi xususiyat predikativ sintagmaga ham xos: lafza halol (yigit), zuvalasi pishiq (bola), koʻz ilgʻamas (dala), jahli tez (kishi) kabi.

Qoʻshma sifat qismlari qaysi soʻz turkumlaridanligiga qarab quyidagicha boʻladi:

1. Ikki sifatdan: olachipor, xomsemiz, qorasovuq kabi.
2. Sifat va otdan: qaorkoʻz, qoraquloq, shirinsoʻz, qimmatbaho, tekintomoq kabi.
3. Ikki otdan: havo rang, bodomqovoq, otashqalb kabi.
4. Ravish va otdan: kamunum, kamqon, kamsuv, kamgap, kamchiqit, kamquvvat, kamyogʻin, hozirjavob kabi.
5. Ravish, baʼzan ot va feʼlning sifatdosh shaklidan: tezpishar, tezotar, kechpishar, ertapishar, tezoqar, tinchliksevar kabi.
6. Son va otdan: beshkokil, ikkiqat kabi. Bunday sifat baʼzan –lama affiksi bilan yasaladi: ikkayuzlama, ikkiyoqlama kabi.
7. Yasash asosi ot va aro soʻzidan: xalqaro, shaharlararo, maktablararo, respublikalararo, birgadalararo, rayonlararo.

Rus tilidan kalkalash asosida qoʻshma sifat yasashning yangi turlari yuzaga keldi:

umum- soʻzini otlarga qoʻshilib hosil qilinadi: umumxalq, umumdavlat, umumjahon, umumshahar, umumittifoq kabi.

II. 2. FE'L VA RAVISHLARNING KOMPOZITSIYA USULIDA YASALISHI

Hozirgi o'zbek tilida fe'l so'z turkumi affiksatsiya usuli va kompozitsiya usuli bilan yasaladi.

Kompozitsiya usuli bilan qo'shma fe'llar yasaladi. Odatda, qo'shma fe'llar ikki va undan ortiq asosning birikuvidan hosil bo'ladi, ulardan yaxlit bir ma'no anglashiladi. Ikki va undan ortiq so'z (asos) birikib, qo'shma fe'l hosil qilganda, ular orasida sintaktik aloqa bo'lmaydi: ...osmon endi o'z farzandiga qaragan onaday birdan muloyimlashdi-yu, borliq bo'lakcha bir mayinlik kasb etdi (O.Yo.)

Qo'shma fe'lning shaxs-son va zamon bilan tuslanishini ko'rsatuvchi shakl yasovchi affikslar har vaqt ko'makchi fe'lga qo'shiladi. Hali bola ekan, menga uzoqdan Ko'kar, yuksal, deya aylading xitob (H.O.) Chol labini tishlab o'ylanib qoldi (O.) Mashrab ...qishloqqa bir ko'z tashladi-da o'rnidan turdi (O.Y.).

Qismlarning qaysi so'z turkumidan bo'lishiga qarab qo'shma fe'llar ikki turga bo'linadi:

1. "Ot, fe'l" tuzilishli (fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'ldan tarkib topgan) qo'shma fe'llar: ta'zim qilmoq, g'ayrat qilmoq, fikr qilmoq kabi;

2. "Fe'l+fe'l" tuzilishli (ikki fe'ldan tarkib topgan) qo'shma fe'llar: olib bormoq, sotib olmoq, olib qochmoq, chiqib ketmoq kabi.

"Ot+fe'l" tuzilishli qo'shma fe'llar. Bunday qo'shma fe'l tarkibidagi qismlar aslida obekt bilan harakat munosbatini ko'rsatsa ham, qo'shma fe'l tarkibida ular orasidagi sintaktik aloqa kuchsizlanib, har ikki qism yaxlit holda bir umumiy leksik ma'noni anglatga boshlaydi, ya'ni semantik va grammatik jihatdan o'zaro uzviy bog'lanib ketib, bir butun leksik birlikni tashkil qiladi. Bu tip qo'shma fe'llarning birinchi qismi vazifasida ot, sifat, son kabi turkum so'zlari keladi, ikkinchi qism vazifasida qilmoq fe'li qo'llanadi. Bu xildagi qo'shma fe'llarda qilmoq fe'li birinchi qismida ifodalangan narsa, belgi, xususiyatga, daraja va miqdorga ega qilish, o'shanga xos qilish, shu holatga keltirish kabi ma'nolarni anglatadi: vafo qilmoq, e'lon qilmoq, katta qilmoq, (rejani) yuz qilmoq kabi. Biz o'qituvchilar to'qqiz yil davomida seni ko'zimizning nuri, qalbimizning harorati bilan parvarish qildik (A. Q.)

Qilmoq ko'makchi fe'lining sinonimi sifatida etmoq, aylamoq fe'llari qo'llanadi: qabul qilmoq – qabul etmoq – qabul aylamoq, obod qilmoq – obod etmoq – obod aylamoq kabi. Hozirgi o'zbek tilida aylamoq fe'li nisbatan kamroq ishlatiladi: Zayofat, keldi-ketdi allapallagacha davom etdi. (O.) O'zingni bos, hovliqma, sabr et (U.) Paxtazorlar qo'ynida mardona javlon aylayin (U.)

Ba'zan ko'rsatmoq fe'li qilmoq, etmoq fe'llariga vazifadosh bo'lib kelishi mumkin: Ayniqsa, Xadicha xolaning vaziyati majlisga ko'p ta'sir ko'rsatdi. (O.)

“Ot+fe'l” tuzilishli qo'shma fe'llarda ikkinchi qism bo'lmoq fe'li bilan ham ifodalanadi: tamom bo'lmoq, tajang bo'lmoq, xafa bo'lmoq, sarson bo'lmoq, ovora bo'lmoq kabi.

Bo'lmoq fe'lining qo'shma fe'l tarkibida ikkinchi qism sifatida kelishini bu fe'lining ot kesim tarkibida bog'lama vazifasida kelishidan (student bo'ldi, injener bo'ladi kabi) farqlash kerak. Bo'lmoq fe'li bog'lama vazifasida kelganda qo'shma fe'l yasalmaydi, balki sodda so'z bog'lama bilan ishlatilgan bo'ladi, xolos. Bu vaqtda bo'lmoq fe'lini boshqa bog'lama bilan almashtirsa bo'ladi: Samimiy aytilgan so'z sodda bo'ladi. Chunki dilning hukmronligi tildan ustun bo'ladi. (G'.G'). Yaxshi odamning boqishlari ham doim go'zal bo'ladi. (M.Ibr.). misollardagi bo'lmoq fe'lining –dir bog'lamasiga (soddadir, ustundir, go'zaldir shaklida) almashtirish mumkin.

Bo'lmoq fe'li qo'shma fe'lining qismi vazifasida kelsa, uni bog'lama bilan almashtirib bo'lmaydi: Yurtni obod bo'ladi. (A.Q.) Har bahorda shu bo'lar takror, Har bahor ham shunday o'tadi. (H.O.) Misollardagi bo'lmoq qismini –dir bog'lamasi bilan almashtirib bo'lmaydi.

Ot va otlashgan so'zlar bilan qo'ymoq, chaqirmoq, olmoq, bog'lamoq, ko'rmoq, tutmoq, kechirmoq, tashlamoq kabi fe'llarning birikishidan asli frazeologik birliklar hosil bo'ladi; bunday birliklarni ot + fe'l tuzilishli qo'shma fe'llar qatoriga kiritish to'g'ri bo'lmaydi: ko'ngil qo'ymoq, nom chiqarmoq, dam olmoq, yo'l tutmoq, qo'lga olmoq, kun kechirmoq, qadam tashlamoq, fikrga kelmoq, ko'zdan kechirmoq. Bu xil birliklarning ma'nosi uning tarkibidagi qismlarning to'g'ri ma'nosidan kelib chiqmaydi, balki har ikki qism yaxlitligicha ko'chma ma'no anglatadi. Masalan, Aya, ortiqcha tashvish tortmang. (O.) Uzun koridordan o'ninchi palataga yo'l oldik. (A.Q.)

“Fe'l+fe'l” tuzilishli qo'shma fe'llar. Qo'shma fe'lining bu turli ikki fe'lining birikuvidan hosil bo'ladi. Birinchi qism odatda fe'lining –a, –y hamda –b, (–ib) ravishdoshi shaklida bo'ladi. Qo'shma fe'l tarkibidagi qismlar o'zaro birikib, ularning ma'nosidan farq qilgan yangi ma'no anglatadi: olib bormoq, olib kelmoq, sotib olmoq, tashlab ketmoq. Omborchilar bilan meni tanishtiring, kolxozdan otaravani olib bering, o'zim tashib qo'yaman. (O.) Avaz suruvdan qolib ketgan ikkita qo'zichoqni olib keldi. (P.Q.) Bunday qo'shma fe'l yaxlitligiga yangi leksik ma'no anglatishi bilan nutqda mustaqil va yordamchi fe'ldan tuzilib, ikkinchi qism tugallanganlik, takror, davom, boshlanish kabi turlicha ma'nolarni ifodalovchi analitik shakllardan farq qiladi: olib kelmoq – fe'l, aytib yubormoq – analitik shakl kabi. Hozirgi o'zbek tilida ikki fe'ldan tashkil topgan qo'shma fe'llar u qadar ko'p emas: chaqirib

kelmoq, tortib olmoq, qaytarib olmoq kabi. Ammo analitik shakllar nutqda juda ko'p ishlatiladi: ayta boshlamoq, aytib qo'yimoq, ayta qolmoq, aytib yubormoq kabi.

Ravish so'z turkumidan so'z yasalishi, umuman ravish deb ataluvchi so'zlarning alohida so'z turkumini hosil qilish masalasida turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, A.Hojiyev o'zbek tili so'z yasalishi sistemasining nazariy masalalarini tadqiq qilar, quyidagi xulosalarga keladi:

“Ravish yasalishi haqida fikr yuritilgan ishlarda ravish yasovchi deb qaralgan affikslarning birortasi ham ravish yasovchi, umuman, so'z yasovchi emas (Bularning har biri haqida to'xtalishni lozim topmaymiz). Shunday ekan, ya'ni so'z yasalishi guruhlar (sistemalari) birdan ortiq yasama so'zlardan tashkil topar ekan, o'zbek tili ravish turkumining so'z yasalishi sistemasiga egaligi haqida gap bo'lishi mumkin emas. Bizningcha, -cha morfemasini nokategorial so'z shaklini yasovchilar qatorida, ya'ni tilshunoslikning morfologiya bo'limida o'rganish to'g'ri va maqsadga muvofiq bo'ladi. Ravish yasovchi deb qaralayotgan boshqa affikslarning ba'zilar, umuman, so'z yasovchi emas (masalan, -dek affiksi) yoki sanoqli so'zlar tarkibida uchraydi, demakki, so'z yasalishi sistemasini yoki shakl yasalishi sistemasini (morfologiya sistemasini) shakllantiruvchi birliklarni hosil qilmaydi (masalan, kuniga, yoppasiga, yigitchasiga so'zlari tarkibidagi -iga, -siga, -chasiga shular jumlasiga kiradi).

Ravish yasalishi haqidagi gaplarni yakunlar ekanmiz, bir fakti alohida ta'kidlashni lozim topamiz. Qizig'i shundaki, o'zbek tili ravish deb keltirilgan fakt-misollarning barchasi o'zbek tilida ravish yasalishi hodisasi, ravish yasalishi sistemasi borligini emas, aksincha, yo'qligini isbotlashga xizmat qiladi. Bu holat amalda qanday natijalar berishini o'zingiz tasavvur qilavering. Bunday holatning mavjudligi esa so'z yasalishi sistemasi til birligining mohiyati haqida aniq tasavvurga ega emaslik, ravish turkumida shunday til birligi bor-yo'qligini belgilashda yasama so'zga xos yuqorida ko'rilgan xususiyatlar asosida ish ko'rmaslik oqibatidir.²

Biroq biz farazlarning ko'pchilik tilshunoslar tomonidan e'tirof etilmaganligi uchun o'zbek tilida ravish so'z turkumi mavjud va ular affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan yasaladi degan qarashlarga qo'shilamiz. Darhaqiqat, ravish yasalishi sistemasida affiksatsiya usuli bilan ravish yasalishida ot, sifat, olmosh kabi turkum so'zlari yasash asosi vazifasida kelsa, kompozitsiya usuli bilan qo'shma ravishlar yasaladi.

Tarkibidagi qismlarning qanday so'zlardan bo'lishiga qarab qo'shma ravish quyidagicha hosil qilinadi:

² A.Hojiyev. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. –T.: “Fan”, 2010.

1. Har belgilash olmoshi bilan o‘rin yoki payt ma’nosini bildiruvchi so‘zlarning birikuvidan hosil bo‘ladi: har vaqt har lahza, har mahal, har on, har zamonda kabi. Misollardan ko‘rinadiki, bu so‘zlar kelishik shaklida ham keladi: Qizlar o‘ninchini tugatgach, har vaqt shunday bo‘ladimi?, - o‘ylardi ona. (Mirm.) Avaz har gal tog‘dan mamnun bo‘lib qaytar edi (P.Q.)

2. Ravish bilan ot, ravishning birikuvidan hosil bo‘ladi: hali zamon, naridan beri kabi.

3. Bir so‘zi bilan o‘rni, payt va miqdor bildiruvchi so‘zlarning birikuvidan hosil bo‘ladi; bu so‘zlar kelishik formasida ham kelishi mumkin: bir vaqt, bir mahal, bir yo‘la, bir zumda kabi.

4. Ayni bir otni, sonni oraga –ma, ba- elementini qo‘shib takrorlash bilan, shuningdek ayni bir sifatni chiqish va bosh kelishikda takrorlash bilan, ayni bir ot va sifatni chiqish va jo‘nalish kelishiklarida takrorlash bilan, o‘z olmoshi takrorini egalik va chiqish kelishigi affikslari bilan ham ishlatishda ravish yasaladi: yuzma-yuz, so‘zma-so‘z, uchma-uch, dam-badam, qo‘lma-qo‘l, birma-bir, quruqdan-quruq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bekordan-bekor, kundan-kunga, o‘z-o‘zidan kabi.

II.3. QO‘SHMA VA JUFT SO‘ZLARNING O‘ZBEK TILI IMLO LUG‘ATIDA AKS ETISHI.

O‘zbekiston Respublikasi FA Tilshunoslik instituti ilmiy kengashi tomonidan tavsiya qilingan va 1995 yilda tasdiqlangan o‘zbek tilining yangi imlo qoidalari asosida nashr qilingan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish bo‘yicha respublika davlat komissiyasining topshirig‘i bilan yangi alifboda tuzilgan.

Lug‘atda avvalo hozirgi o‘zbek adabiy tilida ishlatiladigan va yozilishida xatoga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan tub so‘zlar kiritilgan. Shuning bilan bir qatorda yasama so‘zlarga kam keng o‘rin berilgan. Chunki o‘zbek tili lug‘at tarkibida yasama so‘zlar ham juda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bunday so‘zlarning aniqrog‘i, ulardagi so‘z yasovchi qismning imlosi bir xil bo‘ladi. Shuning uchun imlo lug‘atida yasama so‘zlarning barchasini berish imkoniyati cheklangan.

Imlosida chalkashlik, qiyinchilik yuz berishi mumkin bo‘lgan yasama so‘zlar mualliflar tomonidan hisobga olingan. Lug‘atga ana shunday yasama so‘zlarga kiritilgan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘ttizga yaqin ko‘makchi fe‘l bor. Ular yordamida yangi so‘z yasalmaydi, balki fe‘llarning ming-minglab murakkab shakllari hosil qilinadi. Imlo qoidasida ko‘makchi fe‘lni yetakchi fe‘ldan ajratib yozish aniq ta’kidlangan.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyingi, ayniqsa O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda tilimiz lug‘at tarkibini o‘zbek tilining

imkoniyatlari asosida rivojlantirishga keng yo'l ochildi, natijada yangi-yangi so'zlar yasaldi, o'zbek tilida avvallari iste'molda bo'lgan, lekin asossiz ravishda iste'moldan chiqarilgan ko'pgina so'zlar qayta iste'molga kiritildi. Boshqa tillardan zaruriyatsiz olingan ayrim so'zlar o'zbek tilida mavjud bo'lgan, yangi yasalgan so'zlar bilan almashtirildi. Bunday jarayon davom etmoqda. Imlo lug'atini tuzishda ana shu hol ham hisobga olingan.

Ma'lumki, o'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini 1995 yil 24-avgustda tasdiqlangan. Unda jumladan qo'shma va juft so'zlarning yozilishiga taalluqli "qo'shib yozish", "Chiziqcha bilan yozish", "Ajrati yozish" kabi qoidalar ham o'z aksini topgan:

1. Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: qabulxona, tabriknoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab kabi.

2. -(a)r (inkor shakli- mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas kabi.

3. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar qo'shib yoziladi: pirpirak (pir-pir+ak), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la) kabi.

4. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatan (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z kabi.

5. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq kabi.

6. Narsaning biror maqsad ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqo'ra, nosqovoq kabi.

7. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul kabi.

8. Marosim afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: kiryuvdi, kelintushdi, qoryog'di, Urto'qmoq, Ochidasturxon kabi.

9. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi: mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi kabi.

10. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzacho'l, Sirdaryo, Kosonsoy, Yangiobod kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: O'rta Osiyo, Ko'hna Urganch, Chirchiq kabi.

11. Rus tilidan aynan o‘zlashtirilgan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan hosil qilingan qo‘shma so‘zlar qo‘shib yoziladi: kinoteatr, radiostansiya, fotoapparat, elektrotexnika, teleko‘rsatuv, yarimavtomat, bayramoldi, suvosti kabi.

12. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo‘shiladigan qo‘shimchalar qo‘shib yoziladi: SamDU, ToshDUning kabi. Lekin yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: O‘zXDP MK (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi) kabi.

13. Bir tovush ikki va undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko‘rsatiladi: yo‘o‘q, nimaa, himm, ufffi kabi.

14. Qo‘shma fe‘lning qismlari ajratib yoziladi: sarf qil, ta’sir et, tamom bo‘l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma kabi.

15. Ko‘makchi fe‘l va to‘liqsiz fe‘l mustaqil fe‘ldan ajratib yoziladi: aytib ber, olib ko‘r, so‘rab qo‘y, ko‘ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketganemish kabi. Lekin mustaqil fe‘l bilan yordamchi fe‘l orasida tovush o‘zgarishi bo‘lsa, bunday qismlar qo‘shib yoziladi: aytaver, (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi.

16. Qo‘shma fe‘lning qismlari ajratib yoziladi: sarf qil, ta’sir et, tamom bo‘l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma kabi.

17. Ko‘makchi fe‘l va to‘liqsiz fe‘l mustaqil fe‘ldan ajratib yoziladi: aytib ber, olib ko‘r, so‘rab qo‘y, ko‘ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish kabi. Lekin mustaqil fe‘l bilan yordamchi fe‘l orasida tovush o‘zgarishi bo‘lsa, bunday qismlar qo‘shib yoziladi: aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi.

18. Ko‘makchilar ajratib yoziladi: shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo‘yi kabi. Lekin bilan ko‘makchisining –la shakli, uchun ko‘makchisining –chun shakli chiziqli bilan yoziladi: sen-la, sen-chun kabi.

19. Hamma har, hech, bir, qay, u, shu, o‘sha so‘zlari o‘zidan keyingi yoki oldingi so‘zdan ajratib yoziladi: hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o‘sha yoqqa kabi. Lekin birpas, biroz, birato‘la, birvarakayiga, birmuncha, buyon so‘zlari qo‘shib yoziladi: shuningdek, qay so‘zi yo‘q, yer so‘zlari bilan ishlatilganda bir u tovushi tushsa, bu so‘zlar qo‘shib yoziladi: qayoqqa, qayerga kabi.

20. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan to‘q, jiqqa, tim, liq, lang, och kabi so‘zlar ajratib yoziladi: to‘q qizil, jiqqa ho‘l, tim qora, liq to‘la, lang ochiq, och chariq kabi.

21. Murakkab son qismlari ajratib yoziladi: o‘n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson birinchi kabi.

22. Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo‘nalish kelishigida bo‘lgan birikmalar ajratib yoziladi.

23. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi ko‘pdan ko‘p, tekandan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi kabilar ajratib yoziladi.

24. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so‘zlarga 1 shaklida, unli bilan tugagan so‘zlarga yi shaklida qo‘shiladi: dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so‘zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o‘zbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan so‘zlar qo‘shib yoziladi: gulbeor (gul beor), dardisar kabi.

Bir butun qoidalar sistemasidan iborat bo‘lgan o‘zbek orfografiyasida so‘zlarni qo‘shib, ajratib va chiziqcha orfali yozish qoiadalar ham muhim o‘rin tutadi. So‘zlarni qo‘shib, chiziqcha orqali va ajratib yozilishi o‘z mohiyati bilan leksika sohasiga kiradi, chunki qo‘shib yozish ham, chiziqcha bilan yozish va ajratib yozish ham tilning lug‘at sistemasida yuz beradigan o‘zgarishlarning grafik aks etishi hisoblanadi. Lug‘at tarkibi tilda mustaqil so‘z sifatida ishlatiladigan yangi yasalmalar bilan to‘xtovsiz ravishda to‘ldirilib beradi. So‘z yasalishi hodisasi esa xilma-xilligi va doimiy ravishda asta-sekin davom etishi bilan xarakterlanadi. Bunday yangi yasalmalar o‘zbek orfografiyasida qo‘shilib, chiziqcha bilan o‘z ifodasini topadi.

Murakkab leksik yasalmalarning mazmun jihatidan yaxlitligi shu so‘zlarning o‘z qurilishi orqali aniq ifodalanib tursa, qo‘shib yozish usuli qo‘llanadi. Bu vaqtda qo‘shma so‘z komponentlari orasidagi aniqlovchilik munosabati yo‘qolgan bo‘ladi, ikki komponentning qo‘shiluv natijasida yangi tushuncha anglatgan boshqa yangi bir so‘z yuzaga keladi. Bunday yasalmalarda bitta bosh urg‘uga ega bo‘lish, komponentlarning mustaqil holda ishlatilish-ishlatilmasligi, uning tarkibida yuz bergan fonetik o‘zgarishlar ham muhim rol o‘ynaydi: oshqozon, oqsoch, tomorqa, Oqtapa, boshog‘riq, muzyorar, moshxo‘rda, xalqaro, otashqalb kabi.

Yangi imlo qoidalarida qo‘shma so‘zlarning yozilishda ayrim o‘zgarishlar ham kiritilgan. Jumladan, yer+yong‘oq, muz+yorar, so‘z+boshi kabi so‘zlar avvalgi imlo bo‘yicha ajratib yozilgan bo‘lsa, yangi imlo bo‘yicha bu so‘zlar qo‘shib yoziladi.

ILOVA
O‘ZBEK TILINING IMLO LUG‘ATIDAGI QO‘SHMA SO‘ZLAR

-A-

Aftodahol	Asabbuzar
Alagabof	Atirgul
Allakim	Atirsovun
Allamahol	Avtopoyga
Allanarsa	Avtosug‘orgich
Allanechuk	Avtoxo‘jalik
Allanima	Avtochana
Allaqanday	Avval bahor
Allaqancha	Ayiqmurut
Allavaqt	Ayintovon
Amakivachcha	Ayamajiz
Ammavachcha	Ayg‘irqiyos
Amri mahol	

-B-

Badantarbiya	Baqadrihol
Badaxloq	Baqateran
Badbaxt	Baqato‘n
Badbashara	Bargizub
Badburush	Barikaram
Badgumon	Bartaraf
Badhayo	Barvasta
Badhazm	Barzangi
Badihago‘y	Baxmalbof
Badmast	Baytulahzon
Badmuomala	Bazmi jamshid
Badnafs	Bazmxona
Badnom	Baqbaqa
Badqiliq	Bedapoya
Badqovoq	Beshikkerti
Badsuvrat	Beshiktervatar
Badta‘m	Beshkokil

Badxat	Beshkurash
Badxulq	Beshkutarar
Badxo‘r	Beshotar
Bahamjihat	Beshurug‘
Baholi qudrat	Bir nafas
Bahri dil	Bir nav
Balandparvoz	Bir necha
Balogardon	Bir nima
Baloxo‘r	Biroz
Bamaylixotir	Bir og‘izdan
Bangidevona	Birpas
Bangixona	Bir qadar
Baqabulbul	Bir qancha
Birqozon (qush)	Bitbildiq
Bir talay	Bobodehqon
Bir taraflama	Bobokalon
Bir tekis	Bobotil
Bir tomonlama	Bodomqovoq
Birvarakayiga	Bola faqir
Bir xil	Boldirqore
Bir yoqlama	Boltatumshuq
Bir yoli	Boltayutar
Bir yo‘la	Bolchechak
Bir zumda	boyqush
Boyvachcha	Boyo‘g‘li
Boshpana	Boshqotirma
Buqalamun	Burmaqora
Butunittifoq	Butxona
Bug‘doypoya	Bo‘rikalla
Bo‘riko‘z	Bo‘ritumshuq
Bo‘tako‘z	Bo‘yo‘sar
Bo‘zto‘rg‘ay	

Daqqiyunus
Darmondori
Darparda
Dastarra
Dastavval
Dastgoh
Dastmoya
Devpechak
Devqadam
Devqomat
Devsifat
Devyurak
Dilabgor
Dilafro‘z
Dilband
Dilnavoz
Dilorom
Doshqozon
Dutorbo‘yin

Dastpanja
Dastro‘mol
Dasturulamal
Dastxat
Dastsho‘y
Devonbegi
Devonxona
Dilozor
Dilpora
Dilsiyoh
Diltortar
Dilxasta
Dilxiroj
Dilshikasta
Dolzarb
Dorilfunun
Dovyurak
Dunyoqarash
Do‘ng peshona

-E-

Ellikbash

Elchixona

-G-

Gapsotar
Garmdori
Garisel
Gazniqob
Giyohvand
Gulbadan
Gulband
Gulbarg
Gulbeor
Gulxayri
Gulchambar

Gulbog‘
Guldasta
Gulkaram
Gulkosa
Gulqaychi
Gulqog‘oz
Gulra‘no
Gulsapsar
Gultojixo‘roz
Gulg‘uncha
Gulchehra

Go‘rso‘xta

Go‘sh tqo‘ydi

Hamdard

Hamkasb

Hamkor

Hammabop

Hamnafas

Hamohang

Hamrais

Haromtovoq

Hayotbaxsh

Hurmattalab

Husnixat

-H-

Hamsafar

Hamsuhbat

Hamsoya

Hamtovoq

Haqqush

Hamrost

Harommag‘iz

Haykaltarosh

Hozirjavob

Husnbuzar

-I-

Ikkiqat

Ikkiyoqlama

Ikkizlamlama

Ilonbaliq

Ilonizi

Ilonquychuq

Ishtonbog‘

Itbaliq

Ichkuyov

Iskaptopar

Ishbilarmon

Ishboshi

Ishboshqaruvchi

Ishbuzuqi

Ish haqi

Ishyoqmas

Izzat talab

-J-

Jabrdiyda

Jahongashta

Jahonshumul

Jarqaldirg‘och

Jarqanot

Jigargo‘sha

Jigarpora

Jigarrang

Jonbaxsh

Jomashov

Jonkuyar

Jonsarak

Jonzot

Joynamoz

Jo‘raboshi

Jo‘xoripoya

Jigarsoʻxta

Kallasekar
Kallavaram
Kallaxum
Kasomullo
Kalondimogʻ
Kaltafahm
Kaltabin
Kaltakesak
Kamarbasta
Kamsut
Kamxarj
Kamtar
Karvonboshi
Kattaqoʻrgʻon
Kelinposhsha
Kungaboqar
Koʻkqargʻa
Koʻrsichqon
Koʻzboyloqchi

Laganbardor
Lampashisha
Langarchoʻl

Maishatparast
Majnunsifat
Majnuntol
Makkajoʻxori
Maydagap
Mayfurush

-K-

Kamdaromad
Kamhafsala
Kamhosil
Kampirdahan
Kampirchopon
Kamqatnov
Kamqonlik
Kamquvvat
Kamsuqum
Kanakunjut
Kapalakgul
Karnaygul
Karvonsaroy
Kelinoyi
Kelinsalom
Koʻksulton
Koʻkyoʻtal
Koʻrshapalak
Koʻzboʻyamachilik

-L-

Lattachaynar
Lashkarboshi
Lolaqizgʻaldoq

-M-

Mehmondoʻst
Mehmonnavoz
Mehnatsevar
Mehnattalab
Mingboshi
Mingdevona

Momotaloq
Momaqalldiroq
Mmomaqaymoq
Moyjuvoz
Moyxo‘rak
Moychechak
Moshkichiri
Moshpoya
Mo‘rchamiyon
Mo‘ysafid

Mingoyoq
Mirzaboshi
Mirzaterak
Moshugra
Moshxo‘rda
Mochag‘ar
Muzyorar
Mushkulkushod
Mo‘yqalam
Mo‘ychinak

-N-

Namozshom
Namozshongul
Naychapayvand

Nosqovoq
Nurafshon
No‘xatsho‘rak

-O-

Obakidandon
Obinovvot
Obirahmat
Obizamzam
Obijuvoz
Odamtaxlit
Odamzot
Odamshavanda
ohanjama
Ohangrabo
Olampanoh
Olamshumul
Olaqachon
Olaqaroq
Oqpadar
Oqquyruq
Oqqo‘ton
Oqsichqon

Olaqarg‘a
Olato‘g‘anoq
Olazarak
Olag‘ovur
Olachalpoq
Olachipor
Olibsotar
Oliyhimmat
Oliyjanob
Oliymaqom
Onabani
Onaxotin
Oqbosh
Oqkiyar
Oqpalak
Oqqush
Oqqo‘ton
Oqsichqon

Oqsolar
Oqsoqol
Oqsoch
Oqshom
Oqchechak
Orombaxsh
Oromijon
Otashnafas
Otashqalb
Otboqar
Otchopar
Oyimposhsha
Oyimsupurgi
Oyoqosti
Oypara
Oyquloq
Oshko‘p
Oshpichoq
Oshxamir

Oqsolar
Oqsuyak
Oqurug‘
Oqshuvoq
Orabuzar
Oromgoh
Otashkurak
Otashparast
Otashzabon
Otquloq
Oxirzamon
Oyimqovoq
Oyimtilla
Oyoqosti
Oshqovoq
Oshqozon
Oshrayhon
Oshtaxta
Oshxo‘rak

-P-

Padarkush
Pardevor
Parishonxotir
Paryostiq
Payvasta
Payshanba
Peshanabog‘
Peshayvon
Peshburug‘
Potesha
Po‘stkalla

Peshqadam
Peshtaxta
Pechakgul
Pillapoya
Pillapocha
Poyabzal
Poyondo
Poydevor
Poytaxt
Po‘stdumba

-Q-

Qalampirmunchoq

Qiltomoq

Qalamtarosh
Qaynana
Qaynata
Qaynog‘a
Qayegachi
Qaynini
Qaynsingil
Qayrag‘och
Qaychibarg
Qiltiriq
Qorajigar
Qorakesak
Qorakul
Qorako‘l
Qorako‘z
Qoramag‘iz
Qoraqalpoq
Qoraqand
Qoraqurt
Qorason
Qumqayroq
Qumsabzi
Qumsuvoq
Qumtosh
Qushtomoq
Qo‘lyozma
Qo‘qonarava

Qirqbo‘g‘in
Qirqog‘ayni
Qirqquloq
Qisqichbaqa
Qizilbosh
Qizilishton
Qizilurig‘
Qizilo‘ngach
Qorabayir
Qoradori
Qorashaqshaq
Qorachiq
Qorabo‘ri
Qorinbog‘
Qorxat
Qovog‘ari
Qovunqoqi
Qoyilmaqom
Quloqcho‘zma
Qumpiyoz
Qo‘rboshi
Qo‘ytikan
Qo‘ziqorin
Qo‘shotar
Qo‘shoyoq
Qo‘shog‘iz
Qo‘shquloq

-R-

Rizqiro‘z
Ruxsatnoma
Ruxsor

Ro‘yixotir
Ro‘yixush
Ro‘yirost

-S-

Sadarayhon

sarimsoqpiyoz

Sadqaysar
Saharmardon
Sallagul
Sargushast
Sarhshob
Savatbosh
Seshanba
sovuqqon

Sariyog‘
Sarkotib
Sarlavha
Sarmoya
Sarchashma
Sohibjamol
Sohibqiron
Sochpopuk

-T-

Taklifnoma
Tandirkabob
Taqdimnoma
Taralabedod
Tezpishar
Tezuchar
Tezyurar
Tillakori

Tillaqo‘ng‘iz
Tovonbaliq
Tovonteshar
Tuyapaypoq
Tuyaqush
Tuyasandiq
Tuyatish
Tillaqosh

-U-

Uddaburon
Ulug‘davlatchilik
Umruguzaronlik
Umumdavlat
Umumta’lim
Umumxalq

Ustabuzamon
Ustqurmi
Uzunqanot
Uzunquloq
Uchburchak

-V-

Vaqtqushlik
Vaqtchog‘lik

Vatangado

-X-

Xalacho‘p
Xamirturmush

Xumkalla
Xumorbosdi

Xatcho‘p
Xomashyo
Xomkalla
Xomsemiz
Xomsuvoq
Xomtarash
Xomcho‘t
Xonatlas
Xonavayron
Xontaxta
Xushxabar
Xushchaqchaq
Xo‘rozqand

Xushkayf
Xushmanzara
Xushmuomala
Xushmo‘ylov
Xushovoz
Xushqomat
Xo‘shro‘y
Xushtabiat
Xushta‘m
Xushvaqt
Xushxulq
Xo‘jako‘rsinga

-YA-

Yakkaboshchilik
Yakkamaxov
Yakkaqo‘l
Yakkacho‘l
Yalangbosh
Yalangoyoq
Kryong‘oq
Yerto‘la
Yumronqoziq
Yo‘lboshchi

Yalangto‘n
Yalovbardor
Yapaloqqush
Yarimjon
Yasovulboshi
Yelimbaliq
Yolg‘izoyoq
Yolg‘izqo‘l
Yurtboshi

-Z-

Zaharxanda
Zambilg‘altan
Zarbulmasal
Zarpechak

Zarvaraq
Zebigardon
Zinapoya
Zog‘orabaliy

-O‘-

O‘rtapishar

O‘taketgan

O‘nboshi
o‘rgimchakkana

O‘zibo‘larchilik
O‘rinbosar

-G’-

G‘altakarava
G‘o‘labir

G‘o‘zapochiq
G‘o‘zapoya

-SH-

Shabko‘r
Shakargufta
Shakarob
Shakarpalak
Shakarqamish
Shamg‘alat
Shamchiroq
Shariatpanoh
Shaytonkosa
Shayton qovun
Shayxulislom
Shashmaqom
Shonabarg

Shashqator
Shifobaxsh
Shakastahal
Shirinsuxan
Shirintomoq
Shirqovoq
Shirxo‘rda
Shirchoy
Shirguruch
Shohariq
Shohbekat
Shohko‘cha

-CH-

Chamandagul
Chanqovbostdi
Chilonjiyda
Chilcho‘p
Chimtomoq
Chinoyoq

Chig‘atoy
Chiroqpoya
Chorraha
Chorpoya
Chorpalak
Choychaqa

XULOSA

1. Istiqlol tillarida o'zbek adabiy tili beqiyos darajada rivojlandi va o'sdi. O'zbek tilining mustaqillik davridagi taraqqiyoti jarayonida uning so'z yasashida ham tarkibiy va vazifaviy jihatdan katta o'zgarish, rivojlanish yuz berdi.

2. O'zbek tili so'z yasashining nazariy va amaliy masalalari tadqiq etildi, uning o'ziga xos belgilari bilan farqlanuvchi bosqichlari ajratilib, tahlil qilindi.

3. O'zbek tilini sistema sifatida o'rganishda erishilgan yutuqlardan o'zbek tili so'z yasashida foydalanila boshlandi. So'z yasashini sistema sifatida o'rganishga jiddiy e'tibor qaratildi.

4. Keyingi davrda eng katta o'zgarishlar affiksatsiya usuli bilan so'z yasashida vujudga kelgan bo'lsa-da, kompozitsiya usuli bilan so'z yasashida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi.

5. Kompozitsiya usuli bilan so'z yasashidagi o'zgarish sifatida so'zlarning qo'shma so'z yasashdagi faollashuvini (masalan, qil fe'lining qo'shma fe'l yasashdagi faollashuvi, shuningdek umum so'zining qo'shma sifat yasovchi morfemaga aylanishi) keltirish mumkin.

6. Ot, sifat, fe'l va ravish so'z turkumlarining tarkibi doim yangi yasalmalar bilan boyib boradi. Bu turkumlarda boshqa so'z yasashi usullari qatorida kompozitsiya usuli bilan ham yangi so'zlar yasaladi.

7. Qo'shma so'zlarnig qo'shib yoki ajratib yozish holatlari "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" va "O'zbek tilining imlo lug'ati"da aks ettirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. –Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: “O'zbekiston”, 2000.
4. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: “Sharq”, 1998.
5. Ona tili –davlat tili. –T.: “Adolat”, 2004.
6. Begmatov E. O'zbek adabiy tilining mustaqillik davri rivojiga doir. – “O'zbek tili va adabiyoti”, 2006, № 4.
7. Abdurahmonov F., Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. –T.: “O'zbekiston”, 2002.
8. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: “Talqin”, 2005.
9. Jumaxo'ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz.-T.: “Ma'naviyat”, 1998.
10. Zamonaviy o'zbek tili. I jild. Morfologiya.- T.: “Mumtoz so'z”, 2008.
11. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: “O'zbekiston”, 1992.
12. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I tom. –T.:, “Fan”, 1966.
13. Hojiyev A. O'zbek adabiy tilining taraqqiyoti. 3-tom. So'z yasalishi va leksika.-T.: , “Fan”, 1991.
14. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. –T.: , “O'qituvchi”, 1989.
15. Hojiyev A. So'z yasash usullari. –“O'zbek tili va adabiyoti”, 1975, №4.
16. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. –T.: “Fan”, 2010.
17. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Buxoro, 2001.
18. Rahimov S., Umurqulov E., Eshonqulova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: “Sharq”, 2001.
19. Xurramov Q., Mo'minova S. Ona tili (morfemika, so'z yasalishi, morfologiya)dan amaliy mashg'ulotlar. –Qarshi, “Nasaf”, 2004.
20. O'zbek tilining imlo lug'ati. –T.: “O'qituvchi”, 1995.
21. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari.-T.: “O'qituvchi”, 1995.
22. Sayfullayev R. Va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: “Fan va texnologiya”, 2009.
23. Hamroyev M.A. Ona tili. –T.:, 2008.

Elektron adabiyotlar:

1. WWW. Ziyo/ net
2. WWW. nuqf. intal. Uz